ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY MASOFAVIY KONFERENSIYASI

innopublication.com

“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026

Ushbu to’plamda “ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasining 2026-yil 4-soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

“Zamonaviy ilmiy yondashuvlar va texnologik taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari” nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi ilm-fan va texnologiyalar sohasida ilg‘or yondashuvlar, innovatsion ishlanmalar hamda ustuvor rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Konferensiya materiallari tegishli soha mutaxassislari tomonidan ko‘rib chiqilgan original ilmiy maqolalar va tezislardan iborat bo‘lib, unda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli talabalar, turli soha mutaxassislari hamda mustaqil tadqiqotchilar ishtirok etishlari mumkin.

Konferensiya har oyda bir marotaba tashkil etilib, barcha ishtirokchilarga **sertifikat, maqola pdfi, DOI raqami** hamda **konferensiya to‘plami** taqdim etiladi.

“INNOVATIVE PUBLICATION”- ILMIY TADQIQOTLARNI QO’LLAB-QUVVATLASH MARKAZI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO’PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

http://innopublication.com

Regional private universities prospects

Rahimov Sardor Uralovich
Director General of IPU
max0088.sr@gmail.com,
Orcid- 0009-0000-9107-6200

Annotation

This article examines the specifics of economic support for private higher education institutions in the Kashkadarya Region based on quarterly data for 2022–2025. The analysis focuses on revenue, student enrollment, and equity capital, reflecting the financial stability of the non-state higher education sector. To empirically test these relationships, an econometric multiple linear regression model is proposed, in which revenue is considered the dependent variable, and student enrollment and equity capital are considered factors characterizing the universities' ability to expand educational activities. The results indicate a steady increase in the scale of private universities' activities, particularly in 2024–2025. However, the trend remains uneven, indicating the need for targeted state and institutional support. The article formulates proposals for improving financing mechanisms, stimulating demand for educational services, and strengthening the investment base of private universities.

Key words

private universities, economic support, economic mechanism, revenue, own funds, students, regression.

Introduction. The development of the non-state higher education sector is becoming an important element in the modernization of the regional economy and human capital. Amid growing demand for educational services, private universities perform a dual function: they expand access to higher education while simultaneously

creating new channels for investment, employment, and innovation. This issue is particularly pressing for the Kashkadarya region, as the region needs to strengthen its human resources and diversify its sources of socioeconomic growth.

Economic support for private universities can be provided in various forms: through student subsidies, tax incentives, support for infrastructure projects, simplification of regulatory procedures, and development of partnerships with businesses. International and national approaches to financing private higher education demonstrate that the sustainability of such institutions depends not only on market demand but also on the institutional environment. In this context, an analysis of the financial performance of private universities in the Kashkadarya region allows us to identify real constraints and areas for growth.

The purpose of this article is to assess economic development trends at private universities in the Kashkadarya region and justify their economic support options based on quarterly data for 2022–2025. The objectives of the study include: analyzing revenue, student enrollment, and equity dynamics; constructing an econometric model; interpreting factors influencing financial stability; and developing practical recommendations.

Methods. The empirical basis of the study includes 13 quarterly observations at private universities in the Kashkadarya region for the period from the fourth quarter of 2022 to the fourth quarter of 2025. Three indicators were used: gross revenue, student enrollment, and equity. These indicators simultaneously reflect the scale of demand, resource base, and internal financial stability of the organizations. For the analysis, a multiple linear regression model of the following type is proposed:

$$Revenue_t = \beta_0 + \beta_1 Students_t + \beta_2 OwnFunds_t + \beta_3 Trend_t + \varepsilon_t \quad (1)$$

Where: $Revenue_t$ – is revenue in quarter t,

$Students_t$ - is the number of students,

$OwnFunds_t$ - is equity,

$Trend_t$ – is a linear time trend,

and ε_t - is a random error term.

This model was chosen because the data have a time structure and reflect the dynamics of a single region over time; a regression approach for quarterly observations is methodologically appropriate. A linear trend allows for accounting for the overall growth trajectory, and the inclusion of two financial and organizational factors enhances the meaningfulness of the interpretation. With further refinement of the article a basic multiple regression is quite sufficient.

Results. Analysis of the table shows that private universities in the Kashkadarya region underwent a phase of rapid expansion between 2022 and 2025. Student enrollment increased from 5,276 in the fourth quarter of 2022 to 58,186 in 2025, a more than 11-fold increase. This indicates a significant increase in market demand for private higher education services.

Revenue also demonstrates a general upward trend, although fluctuations are observed within the period. Significant revenue increases are observed in 2023 and especially in 2024, which may be due to student enrollment growth, changes in pricing policies, program expansion, or organizational structure improvements. At the same time, equity capital increased from 10,587,341 million sums in 2022 to 218,022,471 million sums in 2025, confirming the accumulation of internal financial potential. The table below systematizes the initial data and shows that student growth was accompanied by resource growth, but not always linearly. Particularly notable is the year 2024, when student enrollment reached 26,100 and remained at that level for four quarters, while

revenue fluctuated significantly. This points to the influence of pricing, institutional, and possibly seasonal factors.

Table 1. Data on Gross revenue of non-government universities in the Kashkadarya region

Period	Gross revenue, mil. sum	Number of students, people	Equity, mil. sum
Q4 2022	40173103	5276	10587.341
Q1 2023	40180000	5277	198550.486
Q2 2023	40190000	6200	198550.486
Q3 2023	40200000	12500	198550.486
Q4 2023	57032062	18700	198550.486
Q1 2024	57818840	26100	254934.586
Q2 2024	13393926	26100	254934.586
Q3 2024	27380000	26100	254934.586
Q4 2024	287543356	26100	254934.586
Q1 2025	32000000	58186	218022.471
Q2 2025	35000000	58186	218022.471
Q3 2025	40000000	58186	218022.471
Q4 2025	443035283	58186	218022.471

Based on these data, we can expect a positive correlation between student enrollment and revenue, as well as between equity and revenue. In economic terms, this means that enrollment growth facilitates revenue growth, while accumulated equity creates the conditions for scaling infrastructure, hiring faculty, and improving the quality of the educational process. However, the presence of quarterly fluctuations suggests that this correlation is not entirely mechanical and requires accounting for seasonality and internal management decisions.

Discussion. These results confirm that economic support for private universities should not be one-off, but systemic. If the state's goal is to increase the private sector's contribution to personnel training, then support should be aimed at increasing revenue predictability and reducing investment risks. To achieve this, measures that simultaneously stimulate demand and strengthen the supply of educational services are important.

Practical tools that can be proposed include: targeted educational grants for students at private universities, co-financing of digital and laboratory infrastructure, preferential lending for campus development projects, and subsidies for programs that are in demand by the regional economy. This approach is consistent with the rationale for private higher education funding, where state support is often focused on students and institutional conditions, rather than solely on the direct upkeep of universities.

From an econometric perspective, for a more rigorous analysis in the next study, it would be appropriate to use a model with quarterly dummy variables or an autoregressive component to separate the seasonal effect from the stable trend. However, even a basic regression model already demonstrates that student enrollment growth and increased endowment are key predictors of revenue expansion. This makes private universities potentially sustainable, but only if they have a properly designed support policy.

Conclusion. Private, non-government universities in the Kashkadarya region demonstrated significant growth across all key parameters from 2022 to 2025: revenue, student enrollment, and endowment. This indicates that the non-state higher education market in the region has matured and has potential for further expansion.

At the same time, the dynamics of these indicators are uneven, meaning the sector remains sensitive to financial and organizational risks. The most rational model of

economic support is a combination of targeted student aid, infrastructure incentives, and institutional simplification for universities themselves. Therefore, public policy should aim not simply to increase the number of private universities, but to improve their financial sustainability and the quality of their educational products.

Literature.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.

2.Farmonovich, Omanov Rustam. "Understanding Financial Performance: Key Metrics AND How to Calculate Them." *European Journal of Business Startups and Open Society* 4.3: 330-333.

3.Raximov S.U. “The impact of regional investment policy on economic growth”. Modern American Journal of Business, Economics and Entrepreneurship 1.9: 370-374.

4.Raximov S.U. “Экономическая поддержка частных высших учебных заведений в Кашкадарьинской области”. Science abd education in agriculture 12.12: 260-264.

5.Raximov S.U. “Hududiy iqtisodiy mexanizmning mintaqada ta’limga va ijtimoyi-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri”. ICARHSE-International conference on advance research in humanities, applied sciences and education, hosted from Berlin, Germany, 27-december 2025, 28-30

The Influence of Social Media on English Language Learning: Opportunities and Challenges

Maxamatismoilova Umidaxon Isroiljon qizi
Student, BA Applied English Faculty of Humanities
Sharda University Uzbekistan, Andijan

ABSTRACT

Social media has become an important supplementary environment for English language learning because it gives learners continuous access to authentic input, interactive communication, multimedia resources, and online communities. This review article examines the influence of social media on English language learning by analyzing both its educational opportunities and its limitations. Drawing on second language acquisition theory, sociocultural theory, and research on digital learning, the article discusses how platforms such as YouTube, Instagram, TikTok, Facebook, LinkedIn, and X can support vocabulary development, listening practice, writing, communicative competence, learner motivation, and autonomous learning. The article also considers challenges such as distraction, exposure to non-standard language, unreliable content, information overload, unequal access to technology, and limited digital literacy. The review argues that social media should not replace classroom instruction but can enrich English language learning when used purposefully and guided by teachers. The article concludes that effective use of social media requires clear learning objectives, critical digital literacy, responsible online behavior, and a balanced relationship between informal digital exposure and formal academic language learning.

Keywords

English language learning; social media; second language acquisition; digital literacy; communicative competence; learner autonomy; learner motivation

INTRODUCTION

The rapid development of social media has changed the ways people communicate, access information, and learn languages. Platforms such as YouTube, Instagram, TikTok, Facebook, LinkedIn, and X have moved beyond social networking and now function as spaces for informal learning, knowledge sharing, and intercultural communication. For English language learners, these platforms provide access to authentic language materials and opportunities to interact with diverse users beyond the classroom.

English occupies an important role in higher education, international communication, business, research, and digital media. As a result, students increasingly seek flexible and engaging ways to improve their English proficiency. Social media can support this process by exposing learners to real-life vocabulary, pronunciation, idioms, accents, written interaction, and multimedia content. It can also increase motivation because learners often engage with topics that match their interests. However, social media use is not automatically educational. Its entertainment-oriented design can distract learners, and informal language can affect academic writing if students do not understand register differences. Online content also varies in quality and accuracy. Therefore, the role of social media in English language learning must be examined carefully. This article reviews the opportunities and challenges of social media-assisted English learning and proposes pedagogical recommendations for students and teachers.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

This article adopts a qualitative literature review approach. Relevant literature on second language acquisition, sociocultural learning, mobile-assisted language learning, learner motivation, and digital literacy was reviewed thematically. The analysis focuses on vocabulary development, authentic communication, learner autonomy, motivation, digital literacy, and risks associated with social media use.

Krashen’s Input Hypothesis suggests that language acquisition is supported when learners receive meaningful and comprehensible input that is slightly above their current level (Krashen, 1985). Social media can provide such input through videos, captions, podcasts, posts, comments, and discussions. Krashen’s Affective Filter Hypothesis also emphasizes that anxiety can limit acquisition. Informal online environments may reduce anxiety for some learners by allowing them to practice without the immediate pressure of face-to-face performance.

Vygotsky’s Sociocultural Theory explains language learning as a socially mediated process (Vygotsky, 1978). From this perspective, social media supports learning when students participate in meaningful interaction, receive feedback, and collaborate with others. Constructivist approaches also view learners as active participants who build knowledge through experience and reflection. Social media can support learner-centered education, but its effectiveness depends on purposeful learning behavior and teacher guidance.

SOCIAL MEDIA-ASSISTED ENGLISH LANGUAGE LEARNING: BENEFITS AND CHALLENGES

Social media offers learners access to authentic English in varied forms. Videos, reels, podcasts, posts, livestreams, comments, and online discussions expose students to language as it is used in everyday contexts. This exposure can improve vocabulary, listening comprehension, pronunciation awareness, and familiarity with different accents and communication styles. Unlike textbooks, social media content is frequently updated and often reflects contemporary language use.

Vocabulary development is one of the strongest benefits of social media-assisted learning. Learners encounter idioms, collocations, phrasal verbs, academic expressions, and informal conversational phrases in context. When students repeatedly meet words

across videos, comments, captions, and discussions, they are more likely to understand meaning and usage. However, vocabulary learning is most effective when learners record new words, check meanings from reliable sources, and practice them in appropriate contexts.

Social media can also strengthen communicative competence. Language exchange groups, educational channels, comment sections, and online communities allow learners to write, respond, ask questions, and participate in discussions. These interactions can build confidence and intercultural awareness. For learners who have limited opportunities to communicate with English speakers in their local environment, social media can create additional spaces for authentic practice.

Another important benefit is learner autonomy. Social media allows students to choose content that matches their interests and proficiency levels. For example, learners can follow educational channels, listen to short English explanations, watch interviews, read posts, or join language communities. This flexibility encourages learning beyond classroom hours and supports lifelong learning. Reinders and Benson (2017) emphasize the importance of language learning beyond the classroom, and social media provides one practical setting for such learning.

Despite these benefits, social media presents serious challenges. The most common problem is distraction. Notifications, entertainment content, endless scrolling, and multitasking can reduce concentration and lead to unproductive use of time. Students may begin with the intention of learning English but quickly shift to unrelated entertainment. Therefore, purposeful use is necessary. Learners should set specific goals, choose reliable educational accounts, and limit distractions during study time.

Another challenge is exposure to informal, non-standard, or inaccurate language. Social media communication often includes abbreviations, slang, emojis, incomplete

sentences, code-mixing, and grammar errors. While such language can help learners understand real-life digital communication, excessive dependence on it may weaken formal writing if students cannot distinguish between informal and academic English. Digital literacy is therefore essential. Learners must evaluate the credibility of content, identify register differences, and avoid adopting inaccurate language forms.

The quality of online materials is also uneven. Some content creators provide useful explanations, while others may give oversimplified or incorrect information. Teachers can support students by recommending reliable resources and designing activities that connect social media content with learning objectives. For example, students may analyze a short video for vocabulary, compare formal and informal expressions, summarize a podcast, or write a reflective response to an online discussion. In this way, social media becomes a structured learning tool rather than an uncontrolled source of distraction.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

Social media has considerable potential to enrich English language learning by providing authentic input, opportunities for interaction, learner autonomy, and increased motivation. It can support vocabulary development, listening, writing, communication, and intercultural awareness when used purposefully. At the same time, its benefits are limited by distraction, unreliable content, informal language, information overload, and unequal access to technology.

Social media should be treated as a supplementary tool rather than a replacement for formal instruction. Teachers should guide students in selecting reliable content, evaluating online information, and distinguishing between informal and academic language. Students should set clear learning goals, engage with high-quality educational content, and balance online learning with structured classroom study. Educational

institutions should promote digital literacy and responsible use of technology. Future research may investigate the long-term impact of social media on English proficiency, learner motivation, and intercultural competence across different educational contexts.

REFERENCES

Dörnyei, Z. (2001). Motivational strategies in the language classroom. Cambridge University Press.

Ellis, R. (2015). Understanding second language acquisition (2nd ed.). Oxford University Press.

Godwin-Jones, R. (2018). Using mobile technology to develop language skills and cultural understanding. Language Learning & Technology, 22(3), 1-17.

Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. The Modern Language Journal, 70(2), 125-132.

Krashen, S. D. (1982). Principles and practice in second language acquisition. Pergamon Press.

Krashen, S. D. (1985). The input hypothesis: Issues and implications. Longman.

Reinders, H., & Benson, P. (2017). Research agenda: Language learning beyond the classroom. Language Teaching, 50(4), 561-578. https://doi.org/10.1017/S0261444817000192

UNESCO. (2023). Global education monitoring report 2023: Technology in education: A tool on whose terms? UNESCO.

Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

Warschauer, M. (2006). Laptops and literacy: Learning in the wireless classroom. Teachers College Press.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL ASPECTS OF MECHANISMS FOR ENHANCING INVESTMENT ATTRACTIVENESS BASED ON THE GREEN ECONOMY IN THE ACTIVITIES OF MINING INDUSTRY ENTERPRISES

Zikrillayev Nusratilla Nurullayevich
Independent Researcher, Tashkent State Technical University

Abstract

This article analyzes mechanisms for increasing the investment attractiveness of mining industry enterprises in Uzbekistan based on green economy principles. The specific features of environmentally sustainable investment activities in the mining sector, efficient resource utilization, implementation of "green" technologies, international experiences and possibilities for their application in the national context, as well as methods for assessing investment attractiveness based on sustainable development criteria are examined.

Key words

mining industry, green economy, sustainable development, investment attractiveness, ESG management, renewable energy, environmental investments.

KONCHILIK SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING ILMIY-AMALIY JIHATLARI

Zikrillayev Nusratilla Nurullayevich
Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmlari

tahlil qilingan. Konchilik sohasidagi ekologik barqaror sarmoyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni joriy etish, xalqaro tajribalar va milliy kontekstda qo'llash imkoniyatlari, shuningdek, barqaror rivojlanish mezonlari asosida investitsion jozibadorlikni baholash usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: konchilik sanoati, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, investitsion jozibadorlik, ESG-menejment, qayta tiklanadigan energiya, ekologik sarmoyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы повышения инвестиционной привлекательности предприятий горнодобывающей промышленности Узбекистана на основе принципов зеленой экономики. Рассмотрены особенности экологически устойчивой инвестиционной деятельности в горнодобывающей отрасли, эффективное использование ресурсов, внедрение «зеленых» технологий, международный опыт и возможности его применения в национальном контексте, а также методы оценки инвестиционной привлекательности на основе критериев устойчивого развития.

Ключевые слова: горнодобывающая промышленность, зеленая экономика, устойчивое развитие, инвестиционная привлекательность, ESG-менеджмент, возобновляемая энергия, экологические инвестиции.

Konchilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi va mamlakat yer qa'rida oltın, kumush, mis, uran va boshqa ko'plab qimmatbaho mineral resurslar mavjud [1]. Biroq, an'anaviy konchilik faoliyati ko'pincha ekologik muammolarni keltirib chiqaradi: yer va suv resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi issiqxona gazlari emissiyasining ortishi kabi muammolar shular jumlasidandir. Zamonaviy sharoitda yashil iqtisodiyot

tamoyillariga asoslangan konchilik faoliyatini yo'lga qo'yish va shu asosda tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish global tendensiyaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishi strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori [2] hamda 2021-yil 6-iyuldagi "Geologiya va kon-metallurgiya sanoatini innovatsion rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5180-son qarorlari [3] konchilik sohasida yashil texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjatlar bo'ldi.


Konchilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi va yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida investitsion jozibadorligini oshirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Prno J. va Slocombe D.S. konchilik sohasida ijtimoiy litsenziyalash konsepsiyasini taklif etgan va bu orqali korxonalarning mahalliy jamoalar bilan munosabatlarini yaxshilash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkinligini ko'rsatib bergan [4]. Azapagic A. konchilik korxonalari uchun barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqqan va ularni baholash metodikasini taklif etgan [5]. O'zbekistonlik olimlardan Nurbekov O.Sh. o'z tadqiqotlarida konchilik korxonalarining yashil iqtisodiyot sharoitida investitsion salohiyatini baholash usullarini taklif etgan [6]. Boboyev A.X. tomonidan konchilik korxonalarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari o'rganilgan [7].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ham konchilik sohasida barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo'yicha turli tadqiqotlar olib borilgan. UNEP (BMTning Atrof-muhit dasturi) ning "Green Economy Initiative" dasturi doirasida konchilik sanoatida resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [8]. Jahon banki tomonidan "Climate-

Smart Mining" tashabbusi doirasida konchilik korxonalariga "yashil" investitsiyalarni jalb qilish va iqlim o'zgarishiga moslashish mexanizmlari taklif etilgan [9].

Konchilik sanoati korxonalari faoliyatining yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida investitsion jozibadorligini belgilaydigan omillarni ekologik, ijtimoiy, boshqaruv va iqtisodiy guruhlarga bo'lish mumkin. Ekologik omillarga resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish, biologik xilma-xillikni saqlash; ijtimoiy omillarga mehnat xavfsizligini ta'minlash, mahalliy jamoalar bilan hamkorlik; boshqaruv omillariga korporativ boshqaruv sifati, ochiqlik va hisobdorlik; iqtisodiy omillarga esa moliyaviy ko'rsatkichlar, texnologik innovatsiyalar kiradi [10].

O'zbekiston konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyot kontekstida investitsion jozibadorligining SWOT-tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyot kontekstida investitsion jozibadorligining SWOT-tahlili

Manba: Muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida investitsion jozibadorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda mexanizmlarni takomillashtirish zarur:

1. Ekologik mexanizmlar;
2. ESG-menejment mexanizmlari;
3. Yashil moliyalashtirish mexanizmlari;
4. "Yashil" innovatsion texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari.

Konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida investitsion jozibadorligini oshirishda yashil moliyalashtirish mexanizmlari muhim rol o'ynaydi:

- "Yashil" obligatsiyalar chiqarish. "Yashil" obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. 2020-yilda Rossiyaning RUSAL kompaniyasi 200 million dollarlik "yashil" obligatsiyalarni chiqarib, alyuminiy ishlab chiqarishda karbonat angidrid emissiyasini kamaytirish loyihalarini moliyalashtirgan [11]. O'zbekistonda ham konchilik korxonalari tomonidan "yashil" obligatsiyalarni chiqarish amaliyotini rivojlantirish zarur.
- ESG-fondlar bilan hamkorlik. ESG-mezonlar asosida investitsiyalarni amalga oshiruvchi institutsional investorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. BlackRock, Vanguard kabi yirik fondlar investitsiya portfellarida ESG-mezonlarga mos keluvchi kompaniyalar ulushini oshirib bormoqda [12].
- Barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilish. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD)

kabi tashkilotlar yashil iqtisodiyot loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy instrumentlarni taklif etadilar [13].

Konchilik sanoati korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishning muhim yo'nalishi – "yashil" innovatsion texnologiyalarni joriy etish:

• Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish. Konchilik korxonalari faoliyatida quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish ekologik ta'sirni kamaytiradi va operatsion xarajatlarni qisqartiradi. Chili va Avstraliyada joylashgan konchilik korxonalari quyosh elektr stansiyalari va shamol generatorlari orqali o'z energiya ehtiyojlarining sezilarli qismini qoplamoqda. Masalan, Chilida joylashgan Collahuasi mis koni 2025-yilga kelib, o'z energiya ehtiyojlarining 80% ini qayta tiklanadigan manbalar hisobiga ta'minlashni rejalashtirmoqda [14].

• Chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish. Konchilik jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash va ulardan qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini rivojlantirish. Masalan, tog' jinslaridan qurilish materiallari ishlab chiqarish, rudadan ajratib olingan qo'shimcha elementlardan foydalanish, kolchedan kuyindisidan temir-o'g'it ishlab chiqarish kabi texnologiyalar nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki qo'shimcha daromad olishga ham imkon beradi [15].

• Raqamli "yashil" texnologiyalarni joriy etish. "Aqlli kon" va "Raqamli kon" konsepsiyalarini joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik ta'sirni kamaytirish. McKinsey Global Institute tadqiqotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar konchilik korxonalari faoliyatida CO_2 emissiyasini 30% gacha qisqartirish imkonini beradi [16].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasi mineral-xomashyo bazasi holati to'g'risida hisobot". Toshkent, 2023. – 112 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishi strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori. 2019-yil 4-oktabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Geologiya va kon-metallurgiya sanoatini innovatsion rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5180-son qarori. 2021-yil 6-iyul.

4. Prno J., Slocombe D.S. Exploring the origins of "social license to operate" in the mining sector: Perspectives from governance and sustainability theories // Resources Policy. 2022. Vol. 37. Issue 3. – P. 346-357.

5. Azapagic A. Developing a framework for sustainable development indicators for the mining and minerals industry // Journal of Cleaner Production. 2021. Vol. 12. Issue 6. – P. 639-662.

6. Nurbekov O.Sh. Konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyot sharoitida investitsion salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2023. – 56 b.

7. Boboev A.X. Konchilik sohasidagi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022. – 176 b.

8. UNEP. Green Economy Report: Mining. United Nations Environment Programme, 2022. – 45 p.

9. World Bank. Climate-Smart Mining: Minerals for Climate Action. Washington: World Bank Group, 2021. – 112 p.

10. Yakovleva N., Kotilainen J., Toivakka M. Reflections on the opportunities for mining companies to contribute to sustainability in the Arctic // Journal of Cleaner Production. 2021. Vol. 220. – P. 1091-1101.

11. EY. Top 10 business risks and opportunities for mining and metals in 2023. Ernst & Young Global Limited, 2023. – 24 p.

12. Boutilier R., Thomson I. Modelling and Measuring the Social License to Operate: Fruits of a Dialogue Between Theory and Practice. Quebec: International Mine Management, 2021. – 10 p.

13. RUSAL. Sustainability Report 2022. Moscow: RUSAL, 2023. – 212 p.

14. Collahuasi Mining Company. Renewable Energy Strategy 2025. Santiago: Collahuasi, 2022. – 34 p.

15. Lottermoser B.G. Mine Wastes: Characterization, Treatment, and Environmental Impacts. Berlin: Springer, 2021. – 400 p.

16. McKinsey Global Institute. The Net-Zero Transition: What it would cost, what it could bring. McKinsey & Company, 2022. – 224 p.

ROBOTICS AS A STEAM MODULE

Axmedova Gulrux Rustam qizi
Second-Year Student, Faculty of Preschool and Primary Education, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Abstract

This article examines the application of educational robotics in preschool education as the core and integrated module of the modern STEAM approach.

Keywords

STEAM module, integrated education, educational robotics, preschool age, project method, interdisciplinary synthesis, divergent thinking, team competence.

ROBOTOTEXNIKA – STEAM MODULI SIFATIDA

Axmedova Gulrux Rustam qizi - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda ta’limiy robototexnikani zamonaviy STEAM yondashuvining yadrosi va integratsiyalashgan moduli sifatida qo‘llash masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM moduli, integratsiyalashgan ta’lim, ta’limiy robototexnika, maktabgacha yosh, loyiha metodi, fanlararo sintez, divergent tafakkur, jamoaviy kompetensiya.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы применения образовательной робототехники в дошкольном образовании как ядра и интегрированного модуля современного STEAM-подхода.

Ключевые слова: модуль STEAM, интегрированное образование, образовательная робототехника, дошкольный возраст, проектный метод, междисциплинарный синтез, дивергентное мышление, командная компетенция.

Kirish. Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim mazmunini integratsiyalash bugungi kun pedagogikasining eng muhim talablaridan biridir. Bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari parchalangan emas, balki yaxlit xarakterga ega bo‘lgani bois, darslarni alohida-alohida fan shaklida o‘tish kutilgan samarani bermaydi. So‘nggi yillarda ta’lim amaliyotiga kirib kelgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) tizimi aynan shu muammoning yechimi bo‘lib xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) ushbu tizimni mukammal va real hayotga bog‘liq holda ishlatish uchun esa robototexnika eng qulay "birlashtiruvchi modul" (yadro) vazifasini o‘taydi.

Robototexnika faqatgina texnik konstruktor yig‘ish to‘garagi emas. Uni STEAM kontseptsiyasining maxsus moduli sifatida ta’lim jarayoniga kiritish bolaga beshta yo‘nalish bo‘yicha bilimlarni bir vaqtning o‘zida, o‘yin va amaliyot orqali o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu yondashuvda bola tayyor shakllarni shunchaki takrorlamaydi, balki ma’lum bir muammoni hal qilish uchun loyihalar ustida ishlaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy bolalar axborot va raqamli texnologiyalar qurshovida o‘smoqda. Ularning smartfon yoki planshet ekranlariga bog‘lanib qolishi ko‘p hollarda passiv iste’molchilikni keltirib chiqarmoqda. Robototexnika modulining STEAM tarkibida qo‘llanilishi aynan shu jihatdan dolzarbki, u raqamli vositalarni zararli ermakdan foydali va rivojlantiruvchi qurolga aylantiradi.

Ushbu modul maktabgacha yoshdagi bolalarda XXI asr ko‘nikmalari deb ataluvchi tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va jamoada ishlash qobiliyatlarini uyg‘unlikda rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy ta’lim standartlarimiz va "Ilk qadam" davlat dasturida belgilangan bolaning bilish faolligini oshirish vazifasini bajarishda mazkur yo‘nalish eng istiqbolli mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Robototexnika o‘z tabiati ko‘ra mantiqiy-texnik va ijodiy yo‘nalishlar kesishmasida joylashgan. U STEAM tizimining har bir qismini quyidagi tartibda bir butunlikka birlashtiradi:

Science (Tabiat va ilm-fan). Bolalar robotlar bilan ishlash davomida atrof-muhitdagi fizik hodisalarni jonli kuzatishadi. Masalan, g‘ildirakli robot yordamida harakat, tezlik, kuch hamda silliq va g‘adir-budir yuzalardagi ishqalanish kuchi kabi murakkab tushunchalarni oddiy tajribalarda tushunib yetishadi.

Technology (Texnologiya). Bu bosqichda bolalar texnik qurilmalarning ishlash mexanizmlari bilan tanishadilar. Robot tarkibidagi datchiklar (masofa, rang, yorug‘lik datchiklari) insonning ko‘rish va his qilish a’zolariga o‘xshashligini anglab, texnologik savodxonlikning ilk poydevorini qo‘yadilar.

Engineering (Muhandislik). Har bir darsda bolalar haqiqiy konstruktor-muhandis rolini bajarishadi. Ular detallarni o‘zaro mustahkam biriktirish, tishli g‘ildiraklar (shesternyalar) yordamida harakatni uzatish va turli shakldagi modellarning turg‘unligini (muvozanatini) ta’minlash qoidalarini amaliy sinovdan o‘tkazishadi.

Art (San’at va dizayn). Robototexnika faqat sovuq texnikadan iborat emas. Modul tarkibiga san’at elementlarining kiritilishi bolalarga o‘zlari yig‘gan mexanizmlarni rangli qog‘ozlar, chizilgan rasmlar va qo‘lbola ashyolar yordamida bezash imkonini beradi. Robot ma’lum bir ertak qahramoniga yoki jonivorga aylantirilishi bolaning estetik didini o‘stiradi.

Mathematics (Matematika). Darslarning har bir daqiqasi matematik hisob-kitoblarga tayanadi. Konstruktor bo‘laklarini shakli va o‘lchamiga ko‘ra saralash, simmetriya yaratish, robot yuradigan yo‘lning uzunligini yoki qadamlarini o‘lchash orqali bolalarda fazoviy va matematik tafakkur tabiiy holda, hech qanday majburlovsiz shakllanadi.

Robototexnika modulini mashg’ulot jarayoniga kiritishda eng samarali yo‘l - loyiha uslubidir. Mashg‘ulotlar quruq qoidalar emas, balki bolaga qiziqarli bo‘lgan muayyan vaziyat (keys-stadi) asosida tashkil etiladi. Buni amaliy misolda ko‘rib chiqamiz:

Mavzu: “Aqlli va toza shahar loyihasi”

Muammoli vaziyat: Tarbiyachining bolalarga shaharda chiqindilar ko‘payib ketgani va ularni yig‘ish uchun maxsus aqlli mashina kerakligi haqidagi hikoyasi (Ekologik tarbiya va nutq o‘stirish).

Konstruksiyalash bosqichi: Bolalar guruhlarga bo‘linib, konstruktor detallaridan chiqindi yig‘uvchi yuk mashinasi modelini qurishadi (Muhandislik va motorika).

Dasturlash va mantiq bosqichi: Maxsus bloklari yoki tugmalar yordamida robot-mashinaning “ko‘chalar” bo‘ylab yurib, chiqindi qutilariga borish yo‘li (traektoriyasi) chiziladi (Matematika va algoritm).

Taqdimot bosqichi: Guruh a’zolari o‘z robotlari qanday ishlashini guruhdoshlariga tushuntirib berishadi (Ijtimoiy moslashuv va nutq).

Bunday integratsiyalashgan mashg’ulotlarda bola shunchaki o‘yinchoq yig‘maydi, balki muayyan ijtimoiy va texnik muammoning yechimini o‘zi kashf etadi. Xato qilgan taqdirda esa (masalan, robot burilishda adashib ketsa), vaziyatni tahlil qilib, muqobil yechimlarni qidirishni (divergent fikrlashni) o‘rganadi.

Robototexnikani STEAM moduli sifatida qo‘llash an’anaviy darslardan ko‘ra bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, u bolada shaxsiy motivatsiyani kuchaytiradi. Bola o‘z faoliyatining natijasini (robotning yurishi, ovoz chiqarishi yoki chiroqlari yonishini) darhol ko‘rgani uchun darsga bo‘lgan qiziqishi so‘nmaydi.

Ikkinchidan, u hamkorlik madaniyatini shakllantiradi. Kichik guruhlarda rollar taqsimlanadi: kimdir muhandis, kimdir dasturchi, kimdir dizayner bo‘ladi. Bu jarayon bolalarni bir-biri bilan kelishishga, o‘zaro yordam berishga va umumiy g‘alaba

quvonchini his qilishga o‘rgatadi. Tarbiyachi esa bu yerda faqat yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi, bu esa zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuviga mos keladi.

Xulosa. Ta’limiy robototexnika maktabgacha ta’lim muassasalarida shunchaki qo‘shimcha mashg‘ulot emas, balki butun boshli STEAM tizimini harakatga keltiruvchi markaziy moduldir. Uni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda singdirish orqali bolalarda fanlarning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi ilk dunyoqarash shakllanadi. Robototexnika moduli bolani passiv tinglovchidan faol ijodkor, tadqiqotchi va muhandis darajasiga ko‘taradi. Ushbu metodikani MTTlarda keng ommalashtirish kelajakda innovatsion va mustaqil fikrlaydigan, texnologik asr bilan hamqadam ulg‘ayadigan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim poydevor bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2019.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent, 2022.

3. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. New York: Basic Books. 1980.

4. *Выготский Л. С.* Воображение и творчество в детском возрасте. М.: Просвещение,1991. - 93 с.: ил./ Психол. очерк: Кн. для учителя. - 3-е изд. - ISBN 5-09-003428-1

5. Пиаже, Жан. Речь и мышление ребенка / Пиаже Жан; [перевод с французского]. Москва: Издательство АСТ, 2020.

6. Sullivan A., Bers M. U. Robotics in the early childhood classroom: Learning outcomes from an 8-week curriculum. // Journal of Technology Education, Vol. 27, No. 1, 2016. - Pp. 18-35.

THE TRANSFORMATION OF TURKEY’S FOREIGN POLICY WITHIN NATO AS A FORM OF STRATEGIC AUTONOMY

Abdurakhimov Orifxon Shokir oglu

ANNOTATION

This article examines Turkey’s foreign policy within NATO through the concept of strategic autonomy. The study analyzes Turkey’s position within the Alliance, the mechanisms of foreign policy decision-making based on national interests, the development of the defense industry, and the impact of geopolitical changes on foreign policy. Particular attention is paid to Turkey’s efforts to maintain cooperation with NATO while expanding its capacity for independent foreign policy action.

Keywords

NATO, Turkey, strategic autonomy, foreign policy, international relations, geopolitics, security, defense industry, alliance, national interests.

NATO ICHIDA STRATEGIK AVTONOMIYA SIFATIDA TURKIYA TASHQI SIYOSATINING ALYANS DOIRASIDAGI TRANSFORMATSIYASI

Abdurakhimov Orifxon Shokir oglu

abdurahimovorifxon0217@gmail.com **+99899 406-02-17**

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Turkiyaning NATO doirasidagi tashqi siyosati strategik avtonomiya konsepsiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Turkiyaning alyans ichidagi o‘rni, milliy manfaatlarga asoslangan tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlari, mudofaa sanoatining rivojlanishi hamda geosiyosiy muhitdagi o‘zgarishlarning mamlakat tashqi siyosatiga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, Turkiyaning NATO bilan hamkorlikni saqlagan holda mustaqil tashqi siyosiy kursni shakllantirishga intilishi va ushbu jarayonning alyans ichidagi siyosiy muvozanatga ta’siri baholanadi. Tadqiqot natijalari Turkiyaning strategik avtonomiya modeli

zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida o‘rta qudratli davlatlar tashqi siyosatining muhim namunalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: NATO, Turkiya, strategik avtonomiya, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, xavfsizlik, mudofaa sanoati, alyans, milliy manfaatlar.

Аннотация: В статье анализируется внешняя политика Турции в рамках НАТО через призму концепции стратегической автономии. Исследуются механизмы принятия внешнеполитических решений, развитие оборонной промышленности и влияние геополитических изменений на внешнюю политику страны. Особое внимание уделяется стремлению Турции сочетать союзнические обязательства с расширением пространства для самостоятельных внешнеполитических действий.

Ключевые слова: НАТО, Турция, стратегическая автономия, внешняя политика, безопасность, геополитика, оборонная промышленность.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida strategik avtonomiya tushunchasi davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy kategoriya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar, geosiyosiy raqobatning kuchayishi va xavfsizlik muhitining murakkablashuvi ko‘plab davlatlarni tashqi siyosiy strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishga undamoqda [3, 41].

Bunday sharoitda NATOga a’zo davlatlar orasida Turkiya Respublikasi alohida e’tiborga loyiq hisoblanadi. Mamlakatning geostrategik joylashuvi, harbiy salohiyati va mintaqaviy ta’siri uni alyansning eng muhim a’zolaridan biriga aylantirgan [5, 52–54]. Shu bilan birga, Turkiya tashqi siyosatida kuzatilayotgan o‘zgarishlar mamlakatning NATO doirasidagi an’anaviy rolini qayta talqin qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Turkiya tashqi siyosatining o‘ziga xos jihatlaridan biri milliy manfaatlarga asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilishga intilish bilan bog‘liqdir. Mamlakatning

mudofaa sanoatini rivojlantirish, mintaqaviy mojarolarda faol diplomatik siyosat yuritishi hamda ko‘p vektorli tashqi siyosatni amalga oshirishi strategik avtonomiya konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda [12, 35–39].

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Turkiyaning NATO doirasidagi strategik avtonomiya siyosati nafaqat mamlakat tashqi siyosatining transformatsiyasini, balki zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida o‘rta qudratli davlatlarning o‘z manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini ham tushunishga imkon beradi [20, 611–615].

maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiy-komparativ yondashuv, geosiyosiy tahlil va siyosiy prognozlash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, NATOning strategik konsepsiyalari, Turkiya Respublikasi tashqi siyosatiga oid rasmiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi [9, 7–10].

Strategik avtonomiya tushunchasi xalqaro munosabatlar nazariyasida davlatning tashqi siyosat va xavfsizlik masalalarida mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini ifodalaydi. Ushbu konsepsiya dastlab Yevropa xavfsizlik siyosati doirasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik alohida davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini o‘rganishda ham keng qo‘llanila boshlandi [3, 41–45].

Neorealistik maktab vakili Kennet Uolts xalqaro tizimning anarxik tabiatini asoslab, davlatlarning asosiy maqsadi milliy xavfsizlikni ta’minlashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi [1, 118–121]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, strategik avtonomiya davlatlarning o‘z xavfsizlik manfaatlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim siyosiy vosita hisoblanadi.

Turkiya misolida strategik avtonomiya tashqi siyosatni milliy manfaatlar asosida shakllantirish, mudofaa sanoatini rivojlantirish, harbiy-texnik mustaqillikni ta’minlash va xalqaro maydonda ko‘p vektorli diplomatiyani amalga oshirish orqali namoyon bo‘lmoqda [13, 22–23].

Turkiya NATOning geosiyosiy jihatdan eng muhim a’zolaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning Yevropa va Osiyo qit’alari tutashgan hududda joylashganligi unga xalqaro xavfsizlik tizimida alohida mavqe beradi. Qora dengiz, O‘rta Yer dengizi, Kavkaz va Yaqin Sharq mintaqalari bilan bog‘liq xavfsizlik masalalarida Turkiya strategik ko‘prik vazifasini bajaradi.

Turkiyaning geostrategik ahamiyati nafaqat uning geografik joylashuvi, balki harbiy salohiyati bilan ham belgilanadi. Mamlakat NATOning eng yirik qurolli kuchlaridan biriga ega bo‘lib, alyansning kollektiv mudofaa tizimida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Qora dengiz mintaqasidagi xavfsizlik masalalari, energetik kommunikatsiyalar va xalqaro transport yo‘laklari nuqtai nazaridan Turkiyaning roli tobora ortib bormoqda.

Xalqaro munosabatlar nazariyasida geosiyosiy mavqe davlatlarning tashqi siyosiy imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, Turkiya o‘zining geografik joylashuvi orqali NATO, Yevropa, Rossiya, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlari bilan bir vaqtning o‘zida faol hamkorlik yuritish imkoniyatiga ega [6, 184–187].

Mamlakatning geosiyosiy ahamiyati ayniqsa energetika xavfsizligi masalalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Turkiya Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi muhim energetik tranzit markazlaridan biri bo‘lib, xalqaro energetika siyosatida muhim o‘rin egallaydi [8, 143–147]. Bu holat uning xalqaro maydondagi siyosiy ta’sirini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Shu sababli Turkiya NATO tarkibidagi oddiy a’zo davlat emas, balki alyansning strategik barqarorligi va mintaqaviy xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynovchi geosiyosiy markaz sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Strategik avtonomiya Turkiya tashqi siyosatida tasodifiy yuzaga kelgan hodisa emas. U xalqaro tizimdagi o‘zgarishlar, mintaqaviy xavfsizlik muammolari hamda

mamlakatning milliy manfaatlari bilan bog‘liq holda shakllangan murakkab siyosiy jarayon hisoblanadi.

Birinchi omil sifatida xalqaro tizimdagi kuchlar muvozanatining o‘zgarishini ko‘rsatish mumkin. Sovuq urush tugaganidan so‘ng yuzaga kelgan bir qutbli tizim asta-sekin ko‘p qutbli shaklga o‘ta boshladi. Natijada davlatlar tashqi siyosatda ko‘proq manevr qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar [1, 121–125].

Ikkinchi muhim omil mintaqaviy xavfsizlik muhitining murakkablashuvi bilan bog‘liq. Yaqin Sharqdagi mojarolar, terrorizm tahdidlari va noqonuniy migratsiya oqimlari Turkiyaning xavfsizlik siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi [7, 67–72].

Uchinchi omil sifatida mudofaa sanoatining rivojlanishini ko‘rsatish mumkin. Harbiy texnologiyalar ishlab chiqarishdagi yutuqlar mamlakatning tashqi siyosiy mustaqilligini oshirdi. Tashqi qurol bozorlariga qaramlikning kamayishi Turkiyaga xalqaro maydonda mustaqilroq harakat qilish imkonini berdi [14, 44–49].

To‘rtinchi omil mintaqaviy liderlik konsepsiyasi bilan bog‘liqdir. Turkiya o‘zini faqat NATOning a’zosi sifatida emas, balki Yaqin Sharq, Kavkaz, Bolqon va Markaziy Osiyo mintaqalarida ta’sirga ega bo‘lgan mustaqil siyosiy markaz sifatida ko‘rmoqda [18, 305–310].

Beshinchi omil ko‘p vektorli diplomatiya siyosatining shakllanishi bilan bog‘liq. Turkiya bir vaqtning o‘zida NATO, Yevropa davlatlari, Rossiya, Osiyo mamlakatlari va turkiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda [19, 14–18].

Mazkur omillar yig‘indisi mamlakat tashqi siyosatida strategik avtonomiya konsepsiyasining mustahkamlanishiga olib keldi.

Suriya mojarosi Turkiya tashqi siyosatidagi transformatsiyaning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu mojaro mintaqaviy xavfsizlik tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, NATO ichidagi ayrim siyosiy qarashlar tafovutini ham yuzaga

keltirdi [7, 74–76].

Turkiya Suriya hududidagi qurolli guruhlar faoliyatini o‘z milliy xavfsizligiga tahdid sifatida baholadi. Shu sababli mamlakat o‘z chegaralari xavfsizligini ta’minlash maqsadida qator harbiy va diplomatik choralarni amalga oshirdi [10, 21–24].

Mazkur jarayonda Anqara va ayrim NATO davlatlari o‘rtasida mintaqaviy siyosat bo‘yicha qarashlar farqi yuzaga keldi. Biroq Turkiya o‘z harakatlarini xalqaro huquq tamoyillari hamda milliy xavfsizlik manfaatlari bilan asoslab keldi.

Suriya mojarosi natijasida Turkiya tashqi siyosatida mustaqil qaror qabul qilish tendensiyasi yanada kuchaydi. Bu holat mamlakatning strategik avtonomiya siyosatini amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qildi.

Turkiya tashqi siyosatidagi strategik avtonomiya konsepsiyasining eng muhim ko‘rinishlaridan biri Rossiya bilan harbiy-texnik hamkorlikning rivojlanishi bo‘ldi [16, 842–847].

Xususan, S-400 havo mudofaasi tizimlarining xarid qilinishi xalqaro siyosiy doiralarda keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. Ayrim NATO davlatlari mazkur qarorni alyans ichidagi harbiy integratsiya tamoyillariga mos kelmasligini ta’kidlagan bo‘lsalar, Turkiya ushbu qarorni milliy xavfsizlik ehtiyojlari bilan izohladi [17, 510–516].

Mazkur holat Turkiyaning tashqi siyosatida muhim tendensiyani namoyon etdi. Ya’ni mamlakat alyans majburiyatlarini saqlab qolgan holda milliy manfaatlar nuqtai nazaridan mustaqil qarorlar qabul qilishga tayyor ekanligini ko‘rsatdi.

S-400 masalasi xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki u ittifoqchilik munosabatlari bilan strategik avtonomiya o‘rtasidagi murakkab muvozanatni yaqqol namoyon etadi.

Turkiyaning strategik avtonomiyasini tushunishda mudofaa sanoatining rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda harbiy-

texnologik salohiyat davlatlarning tashqi siyosiy mustaqilligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi [14, 44–49].

So‘nggi yillarda Turkiyada uchuvchisiz uchish apparatlari, raketa tizimlari, harbiy kemalar, zirhli texnikalar va zamonaviy elektron tizimlar ishlab chiqarish bo‘yicha katta yutuqlarga erishildi [11, 15–22].

Mudofaa sanoatidagi taraqqiyot mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Harbiy mahsulotlar eksportining ortishi Turkiyaning iqtisodiy va siyosiy ta’sirini kengaytirib, uni mintaqaviy xavfsizlik masalalarida muhim aktorlardan biriga aylantirmoqda.

Rossiya–Ukraina mojarosi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi eng muhim geosiyosiy jarayonlardan biri sifatida NATOga a’zo davlatlarning tashqi siyosiy yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Mazkur vaziyat Turkiyaning strategik avtonomiya siyosatini amaliy jihatdan namoyon etgan muhim sinov maydoniga aylandi.

Turkiya mazkur mojaro davomida bir tomondan Ukrainaning hududiy yaxlitligini qo‘llab-quvvatladi, ikkinchi tomondan esa Rossiya bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarni saqlab qoldi. Bunday yondashuv Anqaraning ko‘p vektorli tashqi siyosat konsepsiyasiga mos ravishda shakllandi.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, Turkiyaning mazkur siyosati “muvozanatlashtiruvchi diplomatiya” modeli sifatida tavsiflanishi mumkin. Ushbu model davlatning qarama-qarshi geosiyosiy markazlar bilan bir vaqtning o‘zida hamkorlik qilish orqali milliy manfaatlarini maksimal darajada ta’minlashga qaratilganligini anglatadi.

Turkiyaning vositachilik tashabbuslari ham xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi. Mamlakat mojaro tomonlari o‘rtasida muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda

mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan diplomatik sa’y-harakatlarni amalga oshirdi.

Mazkur holat Turkiyaning NATO doirasidagi faoliyatini cheklamagan holda, uning mustaqil tashqi siyosiy aktor sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu sababli Rossiya–Ukraina mojarosi Turkiya strategik avtonomiyasi samaradorligini namoyon etuvchi muhim misollardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Turkiya tashqi siyosatidagi transformatsiya NATO doirasidagi siyosiy rolning ham o‘zgarishiga olib keldi. Agar ilgari mamlakat asosan alyans siyosatining faol ijrochilaridan biri sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda u NATO ichidagi muhim siyosiy qarorlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi aktor sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Turkiyaning yangi siyosiy roli bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, mamlakatning geostrategik mavqei NATOning janubiy qanoti xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, Turkiya mintaqaviy mojarolarni tartibga solishda faol vositachi sifatida ishtirok etmoqda. Uchinchidan, mudofaa sanoatining rivojlanishi va harbiy salohiyatning ortishi uning alyans ichidagi siyosiy ta’sirini kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, Turkiya NATO doirasidagi faoliyatini milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqda. Bu esa mamlakatning tashqi siyosiy strategiyasida ittifoqchilik va mustaqillik tamoyillarining o‘zaro uyg‘unlashuviga olib kelmoqda [15, 30–31].

Mazkur tendensiyalar NATO ichidagi siyosiy munosabatlarning yangi shaklini yuzaga keltirmoqda. Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy xalqaro munosabatlarda alyansga a’zo davlatlar o‘z ittifoqchilik majburiyatlarini saqlagan holda ham nisbatan mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatiga ega.

maqola davomida quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, strategik avtonomiya Turkiya tashqi siyosatining muhim konseptual asosiga aylangani aniqlandi. Mamlakat NATO bilan hamkorlikni saqlab qolgan holda milliy manfaatlarga asoslangan mustaqil tashqi siyosat yuritishga intilmoqda.

Ikkinchidan, Turkiya tashqi siyosatidagi transformatsiya xalqaro tizimdagi o‘zgarishlar, mintaqaviy xavfsizlik muammolari, mudofaa sanoatining rivojlanishi hamda geosiyosiy raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq ekanligi asoslandi.

Uchinchidan, mudofaa sanoati va strategik avtonomiya o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Harbiy-texnologik mustaqillik tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan, Turkiyaning ko‘p vektorli diplomatiyasi xalqaro siyosatda muvozanatlashtiruvchi yondashuv sifatida shakllanganligi va bu model mamlakatning geosiyosiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qilayotganligi isbotlandi.

– Turkiyaning strategik avtonomiyasi NATOdan uzoqlashish emas, balki alyans doirasida milliy manfaatlarga asoslangan mustaqil siyosiy manevr maydonini kengaytirish strategiyasi sifatida talqin qilindi;

– Turkiya tashqi siyosatidagi transformatsiyaning asosiy siyosiy, harbiy va geosiyosiy omillari tizimlashtirildi;

– Mudofaa sanoati rivojlanishi va tashqi siyosiy avtonomiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy asosda ochib berildi;

– Turkiyaning NATO doirasidagi faoliyati strategik avtonomiya konsepsiyasi nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilindi;

– Alyans ichidagi siyosiy mustaqillik va ittifoqchilik majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatning Turkiya modeli asoslab berildi.

maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiya NATO tarkibidagi eng muhim geosiyosiy aktorlardan biri sifatida xalqaro xavfsizlik tizimida alohida o‘rin egallaydi. Mamlakat tashqi siyosatida kuzatilayotgan transformatsiya strategik avtonomiya konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u milliy manfaatlarga asoslangan mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Turkiyaning geostrategik mavqei, mintaqaviy ta’siri, mudofaa sanoatidagi yutuqlari hamda ko‘p vektorli diplomatiyasi uning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakat NATO bilan hamkorlikni saqlab qolgan holda mustaqil tashqi siyosat yuritishga intilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Turkiyaning strategik avtonomiya siyosati zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida o‘rta qudratli davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini o‘rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tajriba kelgusida xalqaro xavfsizlik, ittifoqchilik munosabatlari va mintaqaviy siyosat masalalarini tadqiq etishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aras B. Autonomy Seeking in Turkish Foreign Policy // Foreign Policy Analysis. – 2024. – Vol. 20. – No. 2.

2. Aydınlı E. Middle Powers and Strategic Autonomy: The Turkish Case // Security Dialogue. – 2022. – Vol. 53. – No. 6.

3. Dal E. Turkey’s Strategic Autonomy and the Future of NATO Relations // International Affairs. – 2023. – Vol. 99. – No. 4.

4. Duran B. Turkish Foreign Policy in the New Era. – Ankara: SETA Publications, 2023.

5. Gürcan M. Turkey’s Defence Industry and Strategic Autonomy // Middle East Policy. – 2023. – Vol. 30. – No. 1.

6. Kardaş Ş. Turkey’s Strategic Autonomy and NATO Relations in a Multipolar World // Insight Turkey. – 2024. – Vol. 26. – No. 2.

7. Keyman E.F. Turkey’s Foreign Policy Activism and NATO // Mediterranean Politics. – 2021. – Vol. 26. – No. 3.

8. Kutlay M., Öniş Z. The Limits of Turkey’s Strategic Autonomy // Third World Quarterly. – 2022. – Vol. 43. – No. 8.

9. Larrabee F. Turkey as a U.S. Security Partner. – RAND Corporation, 2008.

10. Morgenthau H. Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace. – New York: McGraw-Hill, 2006.

11. NATO. Strategic Concept 2022. – Brussels: NATO Public Diplomacy Division, 2022.

12. Oğuzlu T. Turkey and NATO: Political and Strategic Challenges. – Ankara, 2024.

13. Presidency of Defence Industries of Türkiye. Annual Defence Industry Reports. – Ankara.

14. Republic of Türkiye Ministry of Foreign Affairs. Turkish Foreign Policy Reports. – Ankara.

15. Sayari S. Turkish Politics and Foreign Policy in the Twenty-First Century. – London: Routledge, 2021.

16. Taşpınar Ö. Strategic Autonomy and Turkish Security Policy // Journal of Strategic Studies. – 2023. – Vol. 46. – No. 5.

17. Waltz K. Theory of International Politics. – New York: McGraw-Hill, 1979.

18. Yılmaz S. Strategic Autonomy in Turkish Foreign Policy: Continuity and Change // Journal of Balkan and Near Eastern Studies. – 2024. – Vol. 26. – No. 3.

IMPROVING THE LINK BETWEEN PHYSICAL ACTIVITY AND SELF-CONFIDENCE IN UNIVERSITY STUDENTS

Botirova Gulbaxor Musurmon qizi
Asia International University, 1st year master's student

Annotation

This thesis examines the relationship between students' physical activity and their level of self-confidence. Physical activity is an important factor in strengthening human health, increasing the functional capacity of the body, ensuring psychological stability, and developing social activity. In particular, for students at higher education institutions, regular physical exercise not only improves physical fitness but also increases their self-confidence, initiative, determination, and social adaptability. The student period is an important stage in a person's intellectual, physical, and psychological formation. During this period, young people's adherence to a healthy lifestyle, active participation in sports activities, and meaningful organization of their free time have a positive effect on their overall development. Through physical activity, students develop qualities such as recognizing their own capabilities, setting goals, striving for results, overcoming failure, and acting as part of a team. The thesis theoretically analyzes the relationship between students' physical activity and their level of self-confidence, and also demonstrates the importance of physical education classes, sports clubs, and health-improvement activities in the development of a student's personality.

Keywords

student, physical activity, self-confidence, sport, physical education, healthy lifestyle, motivation, psychological stability, personal development.

TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGI VA O‘ZIGA ISHONCH DARAJASI

UNIVERSITET TALABALARI JISMONIY FAOLLIGI VA O‘ZIGA BO‘LGAN ISHONCHI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

УКРЕПЛЕНИЕ СВЯЗИ МЕЖДУ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТЬЮ И УВЕРЕННОСТЬЮ У СЕБЕ У СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТА

Osiyo Xalqaro Universiteti, 1-kurs magistratura talabasi

Азиатский международный университет, студент 1-го курса магистратуры

Annotatsiya. *Mazkur tezisda talabalarning jismoniy faolligi va o‘ziga ishonch darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi yoritilgan. Jismoniy faollik inson salomatligini mustahkamlash, organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, ruhiy barqarorlikni ta’minlash hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun muntazam jismoniy mashg‘ulotlar nafaqat jismoniy tayyorgarlikni yaxshilaydi, balki ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, tashabbuskorligi, qat’iyati va ijtimoiy moslashuvchanligini ham oshiradi. Talabalik davri shaxsning intellektual, jismoniy va psixologik jihatdan shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda yoshlarning sog‘lom turmush tarziga amal qilishi, sport mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishi hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishi ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy faollik orqali talabalarda o‘z imkoniyatlarini anglash, maqsad qo‘yish, natijaga intilish, muvaffaqiyatsizlikni yengib o‘tish va jamoada harakat qilish kabi sifatlar rivojlanadi. Tezisda talabalarning jismoniy faolligi va o‘ziga ishonch darajasi o‘rtasidagi munosabat nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, sport to‘garaklari va sog‘lomlashtirish tadbirlarining talaba shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: talaba, jismoniy faollik, o‘ziga ishonch, sport, jismoniy tarbiya,

sog‘lom turmush tarzi, motivatsiya, ruhiy barqarorlik, shaxsiy rivojlanish.

Аннотация. *В данной работе рассматривается вопрос взаимосвязи между физической активностью студентов и уровнем их уверенности в себе. Физическая активность является важным фактором укрепления здоровья человека, повышения функциональных возможностей организма, обеспечения психической устойчивости, а также развития социальной активности. В частности, для студентов высших учебных заведений регулярные физические занятия не только улучшают физическую подготовку, но и повышают их уверенность в себе, инициативность, решительность и социальную адаптивность. Студенческий период является важным этапом в интеллектуальном, физическом и психологическом становлении личности. В этот период соблюдение молодыми людьми здорового образа жизни, активное участие в спортивных занятиях, а также содержательная организация свободного времени положительно влияют на их общее развитие. Благодаря физической активности у студентов развиваются такие качества, как осознание собственных возможностей, постановка целей, стремление к результату, преодоление неудач и умение действовать в команде. В работе теоретически анализируется взаимосвязь между физической активностью студентов и уровнем их уверенности в себе, а также показана значимость занятий физической культурой, спортивных секций и оздоровительных мероприятий в развитии личности студента.*

Ключевые слова: студент, физическая активность, уверенность в себе, спорт, физическое воспитание, здоровый образ жизни, мотивация, психическая устойчивость, личностное развитие.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarni har tomonlama barkamol,

sog‘lom, faol va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarning bilim olishi bilan bir qatorda ularning jismoniy rivojlanishi, ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirish ham ta’lim jarayonining ajralmas qismi sanaladi. Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari talabalarning nafaqat sog‘lig‘ini mustahkamlash, balki ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda yoshlar orasida kamharakatlilik, uzoq vaqt kompyuter yoki telefon qarshisida o‘tirish, ruhiy zo‘riqish, charchoq va motivatsiyaning pasayishi kabi holatlar ko‘proq uchramoqda. Bu holatlar talabalarning nafaqat jismoniy holatiga, balki ularning o‘ziga ishonchi, muloqotga kirishish qobiliyati va ijtimoiy faolligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy faolligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega [1].

Jismoniy faollik deganda insonning kundalik hayotida bajaradigan harakatlari, sport mashg‘ulotlari, jismoniy tarbiya darslari, mustaqil mashqlar, piyoda yurish, yugurish, sport o‘yinlari va boshqa harakat faoliyatlari tushuniladi. Bunday faoliyat organizmning ish qobiliyatini oshiradi, mushaklar faoliyatini yaxshilaydi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, jismoniy faollik inson ruhiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mashg‘ulotlardan keyin kayfiyatning ko‘tarilishi, stressning kamayishi, o‘zini yengil his qilish va ichki ishonchning ortishi kuzatiladi. O‘ziga ishonch esa shaxsning o‘z kuchi, qobiliyati, bilimi va imkoniyatlariga nisbatan ijobiy munosabatidir. Talabalarda o‘ziga ishonch yuqori bo‘lsa, ular dars jarayonida faolroq ishtirok etadi, mustaqil fikr bildiradi, yangi tashabbuslar ko‘rsatadi va turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishga intiladi. Aksincha, o‘ziga ishonch past bo‘lgan talabalar ko‘pincha tortinchoq, sust, tashabbussiz va ijtimoiy muloqotda passiv bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning jismoniy faolligi va o‘ziga ishonch darajasi

o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari orqali nafaqat sog‘lom tana, balki kuchli iroda, qat’iyat, muloqot madaniyati, liderlik va o‘z imkoniyatlariga ishonch kabi muhim sifatlarni ham shakllantirish mumkin [2].

Asosiy qism. Talabalarning jismoniy faolligi ularning kundalik hayot tarzi, sog‘lig‘i, o‘quv faoliyati va psixologik holati bilan bevosita bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar ko‘p vaqtini auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, kompyuterda ishlash va o‘quv vazifalarini bajarish bilan o‘tkazadi. Natijada harakat faolligi yetarli darajada bo‘lmasa, organizmda charchoq, sustlik, ortiqcha zo‘riqish va diqqatning pasayishi kuzatilishi mumkin. Jismoniy mashg‘ulotlar esa bunday salbiy holatlarning oldini olishga yordam beradi. Muntazam sport bilan shug‘ullanish talabalar organizmining chidamliligini oshiradi, mushaklar faoliyatini kuchaytiradi, qomatni to‘g‘ri shakllantiradi, tana vaznini me’yorida saqlashga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, jismoniy faollik talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini ham oshiradi. Chunki sog‘lom va faol talaba o‘zini tetik his qiladi, diqqatini jamlay oladi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga ko‘proq intiladi [3].

Jismoniy faollikning muhim jihatlaridan biri shundaki, u shaxsda ijobiy psixologik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Sport mashg‘ulotlarida ishtirok etayotgan talaba asta-sekin o‘z jismoniy imkoniyatlarini anglay boshlaydi. U avval bajara olmagan mashqni bajarishga erishadi, o‘z natijasini yaxshilaydi, raqobat muhitida qatnashadi va muvaffaqiyat hissini boshdan kechiradi. Ana shu jarayonlar talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. O‘ziga ishonchning shakllanishida muvaffaqiyat hissi muhim o‘rin tutadi. Masalan, talaba yugurish masofasini avvalgidan yaxshiroq bosib o‘tsa, sport o‘yinida faol qatnashsa yoki jamoasiga foyda keltirsa, unda “men ham qila olaman” degan ijobiy fikr paydo bo‘ladi. Bu fikr keyinchalik nafaqat sport faoliyatida, balki

o‘qish, muloqot va ijtimoiy hayotda ham namoyon bo‘ladi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jamoaviylikni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Sport o‘yinlari, musobaqalar, guruhli mashqlar talabalarni bir-biri bilan muloqot qilishga, hamkorlikda harakat qilishga, mas’uliyatni his etishga va jamoa manfaatini tushunishga o‘rgatadi. Bu esa talabalarning ijtimoiy faolligi va o‘zini erkin tutish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalarning o‘ziga ishonch darajasiga jismoniy faollikning quyidagi omillari ta’sir ko‘rsatadi: mashg‘ulotlarning muntazamligi, mashq turining qiziqarliligi, o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi yondashuvi, guruhdagi ijobiy muhit, shaxsiy natijalarning baholanishi va talabaning o‘zgarishni his qilishi. Agar mashg‘ulotlar majburlash asosida emas, balki qiziqish va motivatsiya asosida tashkil etilsa, ularning samaradorligi yanada ortadi [4].

Shuningdek, talabalarda jismoniy faollikni oshirish uchun mashg‘ulotlarni faqat an’anaviy uslubda emas, balki zamonaviy, interfaol va motivatsion yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Sport o‘yinlari, fitnes mashg‘ulotlari, estafeta, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika, yurish va yugurish mashqlari, kichik guruhli musobaqalar talabalarning qiziqishini oshiradi.

Quyidagi jadvalda jismoniy faollik shakllarining talabalarda o‘ziga ishonch darajasiga ta’siri umumlashtirilgan.

№	Jismoniy faollik shakllari	Talabaga ta’siri	O‘ziga ishonchga ta’siri
1	Jismoniy tarbiya darslarida muntazam qatnashish	Harakat ko‘nikmalari, chidamlilik va intizom rivojlanadi	Talaba o‘z jismoniy imkoniyatlarini anglaydi va o‘zini erkinroq his qiladi
2	Sport to‘garaklarida ishtirok etish	Qiziqish, maqsadga intilish va mas’uliyat	O‘z kuchiga ishonch, qat’iyat va natijaga intilish

		kuchayadi	ortadi
3	Jamoaviy sport o‘yinlari	Hamkorlik, muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi	Talaba o‘zini guruhning muhim a’zosi sifatida his qiladi
4	Mustaqil jismoniy mashqlar bajarish	O‘zini nazorat qilish, tartib va mas’uliyat rivojlanadi	Talabada mustaqillik va o‘z imkoniyatiga ishonish kuchayadi
5	Sport musobaqalarida qatnashish	Raqobat, iroda, jasorat va stressga chidamlilik rivojlanadi	G‘alaba yoki ishtirok tajribasi orqali ichki ishonch ortadi
6	Sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar	Kayfiyat yaxshilanadi, stress kamayadi, umumiy holat barqarorlashadi	Ruhiy barqarorlik va ijobiy o‘zini baholash shakllanadi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jismoniy faollikning har bir shakli talabalarning shaxsiy rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy tarbiya darslarida muntazam qatnashish talabalarni harakatga o‘rgatadi, ularda intizom va mas’uliyatni shakllantiradi. Bu jarayonda talaba o‘z tanasini boshqarish, mashqlarni to‘g‘ri bajarish va jismoniy imkoniyatlarini baholashni o‘rganadi. Natijada unda o‘ziga bo‘lgan ijobiy munosabat kuchayadi. Sport to‘garaklarida ishtirok etish esa talabaning qiziqishlarini rivojlantiradi. Talaba o‘zi yoqtirgan sport turi bilan shug‘ullanganda, mashg‘ulotga nisbatan ichki motivatsiyasi kuchayadi. Bu esa uning o‘z ustida ishlashiga, natijasini yaxshilashga va muvaffaqiyatga intilishiga sabab bo‘ladi. Bunday holat o‘ziga ishonchni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Jamoaviy sport o‘yinlari talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Futbol, voleybol, basketbol, gandbol kabi sport turlarida talaba o‘z jamoasi bilan birga harakat qiladi, sheriklari bilan muloqotga kirishadi, vaziyatga

qarab tez qaror qabul qiladi. Bu jarayon talabaning o‘z fikrini bildirish, mas’uliyat olish va jamoada o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Mustaqil jismoniy mashqlar esa talabaning o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Har kuni yoki haftada bir necha marta mustaqil mashq bajarish uchun ichki intizom, reja va iroda zarur bo‘ladi. Talaba o‘z rejasi asosida harakat qilsa va natijani sezsa, unda o‘ziga nisbatan ishonch yanada ortadi [5]. Sport musobaqalarida qatnashish talaba uchun muhim psixologik tajriba hisoblanadi. Musobaqa jarayonida u hayajon, raqobat, mas’uliyat va natija uchun kurashish holatlarini boshdan kechiradi. Bunday tajriba talabaning jasoratini, qat’iyatini va stressga chidamliligini oshiradi. Hatto g‘alaba qozonmagan holatda ham musobaqada ishtirok etishning o‘zi talaba uchun katta tajriba bo‘lib, keyingi faoliyatida o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi. Sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar, xususan, yengil gimnastika, yurish, yugurish, cho‘zilish mashqlari, fitnes va boshqa mashqlar talabalarning ruhiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday mashg‘ulotlar stressni kamaytiradi, kayfiyatni ko‘taradi va talabaning umumiy hayot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ruhiy barqarorlik esa o‘ziga ishonchning muhim asoslaridan biridir. Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy faollik talabalarda o‘ziga ishonchni shakllantirish va rivojlantirish uchun samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Bunda mashg‘ulotlarning mazmuni, o‘qituvchining yondashuvi, talabaning qiziqishi va jamoaviy muhit muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalarning jismoniy faolligi ularning o‘ziga ishonch darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Muntazam jismoniy mashg‘ulotlarda qatnashish talabalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash bilan birga, ularning ruhiy holati, ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va shaxsiy sifatlarini rivojlantiradi. Jismoniy faollik jarayonida talaba o‘z imkoniyatlarini anglaydi, o‘z tanasini boshqarishni o‘rganadi, maqsad qo‘yadi va natijaga intiladi. Bu esa unda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi.

Ayniqsa, jamoaviy sport o‘yinlari, sport to‘garaklari, mustaqil mashqlar va musobaqalarda ishtirok etish talabalarning o‘zini namoyon qilishiga, ijtimoiy muhitga moslashishiga va shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini zamonaviy, qiziqarli va motivatsion usullar asosida tashkil etish talabalarni sportga kengroq jalb qilish imkonini beradi. Mashg‘ulotlarda har bir talabaning jismoniy imkoniyatini hisobga olish, ularni rag‘batlantirish, kichik yutuqlarini e’tirof etish va ijobiy muhit yaratish o‘ziga ishonchni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, talabalarning jismoniy faolligini oshirish masalasi faqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ularning o‘ziga ishonchi, ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini ham mustahkamlaydi. Demak, jismoniy faollik talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Champaign: Human Kinetics, 2019.
2. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 1997.
3. Fox K.R. The influence of physical activity on mental well-being. Public Health Nutrition. – 1999. – Vol. 2(3a). – P. 411–418.
4. Tremblay M.S., Warburton D.E.R., Janssen I. Physical activity and health benefits in youth. Applied Physiology, Nutrition, and Metabolism. – 2011. – Vol. 36(1). – P. 36–46.
5. Biddle S.J.H., Mutrie N., Gorely T. Psychology of Physical Activity: Determinants, Well-being and Interventions. – London: Routledge, 2015.

THE RELATIONSHIP BETWEEN PHYSICAL ACTIVITY AND ACADEMIC ACHIEVEMENT AMONG STUDENTS

Arabova Nargiza Husanqizi

Asia International University, 1st year master's student

Annotation

This thesis examines the relationship between students' physical activity and academic achievement. Today's education process aims not only to raise students' knowledge but also to ensure their physical, mental, and social well-being. A healthy, active, and mentally stable student participates more actively in lessons, absorbs information faster, concentrates better, and achieves higher results in academic tasks. Physical activity strengthens the body, improves cardiovascular and respiratory function, and develops the musculoskeletal system, while also positively affecting mental performance. Regular exercise develops attention, memory, thinking speed, discipline, responsibility, and self-management skills in students, which serve as important factors of academic success. The thesis analyzes the impact of physical activity on students' learning activity, classroom engagement, motivation, social adaptation, and psychological stability, and demonstrates ways to positively influence students' academic achievement by increasing physical activity in school settings.

Keywords

student, physical activity, academic achievement, educational process, physical education, attention, memory, motivation, healthy lifestyle, school.

O'QUVCHILARDA JISMONIY FAOLLIK VA AKADEMIK MUVAFFAQIYAT O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Osiyo Xalqaro Universiteti, 1-kurs magistratura talabasi

Азиатский международный университет, студент

1-го курса магистратуры

Annotatsiya. *Mazkur tezisda o'quvchilarda jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi yoritilgan. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat bilim darajasini oshirish emas, balki ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan sog'lom rivojlanishini ta'minlash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki sog'lom, faol va ruhiy jihatdan barqaror o'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi, ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi, diqqatini jamlay oladi va o'quv topshiriqlarini bajarishda yuqori natijalarga erishadi. Jismoniy faollik o'quvchilarning organizmini chiniqtirish, yurak-qon tomir va nafas olish tizimi faoliyatini yaxshilash, mushak-skelet tizimini rivojlantirish bilan birga, ularning aqliy mehnat qobiliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muntazam jismoniy mashqlar o'quvchilarda diqqat, xotira, fikrlash tezligi, intizom, mas'uliyat va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa akademik muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tezisda jismoniy faollikning o'quvchilarning o'quv faoliyatiga ta'siri, darsdagi faollik, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv va ruhiy barqarorlik bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maktab sharoitida jismoniy faollikni oshirish orqali o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *o'quvchi, jismoniy faollik, akademik muvaffaqiyat, ta'lim jarayoni, jismoniy tarbiya, diqqat, xotira, motivatsiya, sog'lom turmush tarzi, maktab.*

Аннотация. *В данных тезисах рассматривается вопрос взаимосвязи между физической активностью учащихся и их академической успеваемостью. Сегодня образовательный процесс предполагает не только повышение уровня знаний учащихся, но и обеспечение их физического, психического и социального здоровья. Здоровый, активный и психически устойчивый учащийся активно участвует в*

уроке, быстрее усваивает информацию, лучше концентрирует внимание и достигает высоких результатов в учебных заданиях. Физическая активность укрепляет организм учащихся, улучшает работу сердечно-сосудистой и дыхательной систем, развивает опорно-двигательный аппарат, а также положительно влияет на умственную работоспособность. Регулярные физические упражнения развивают у учащихся внимание, память, скорость мышления, дисциплину, ответственность и навыки самоконтроля, что является важным фактором академической успеваемости. В тезисах анализируется влияние физической активности на учебную деятельность учащихся, активность на уроках, мотивацию, социальную адаптацию и психологическую устойчивость, а также показаны возможности положительного влияния на академическую успеваемость учащихся посредством повышения физической активности в условиях школы.

Ключевые слова: *учащийся, физическая активность, академическая успеваемость, образовательный процесс, физическое воспитание, внимание, память, мотивация, здоровый образ жизни, школа.*

Kirish

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bilim sifati va akademik muvaffaqiyatini oshirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning sog'lom rivojlanishi, jismoniy faolligi va ruhiy barqarorligini ta'minlash ham ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sanaladi. Chunki o'quvchining jismoniy holati uning aqliy faoliyati, darsga bo'lgan qiziqishi, diqqatni jamlash qobiliyati va o'quv natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda o'quvchilar hayotida kamharakatlilik holati tobora ko'proq kuzatilmoqda. Uzoq vaqt partada o'tirish, kompyuter va telefonlardan ko'p foydalanish, bo'sh vaqtni

faol harakat o'rniga passiv mashg'ulotlar bilan o'tkazish o'quvchilarning umumiy salomatligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bunday holat charchoq, sustlik, diqqatning pasayishi, ortiqcha zo'riqish va o'qishga bo'lgan qiziqishning kamayishiga olib keladi. Jismoniy faollik esa ushbu muammolarning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Muntazam harakat faoliyati o'quvchilarning organizmini chiniqtiradi, ularning ish qobiliyatini oshiradi, kayfiyatini yaxshilaydi va dars jarayonida faol bo'lishiga yordam beradi. Jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari, ertalabki badantarbiya, harakatli o'yinlar, musobaqalar va mustaqil mashqlar o'quvchilarning jismoniy hamda psixologik rivojlanishiga xizmat qiladi. Akademik muvaffaqiyat deganda o'quvchining darslarni o'zlashtirish darajasi, baholari, topshiriqlarni bajarish sifati, mustaqil fikrlashi, darsda faol qatnashishi va bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Akademik muvaffaqiyat faqatgina aqliy qobiliyatga bog'liq emas. Unga o'quvchining sog'lig'i, kun tartibi, uyqu sifati, ovqatlanishi, ruhiy holati, oilaviy muhit, maktabdagi sharoit va jismoniy faollik darajasi ham ta'sir qiladi [1].

Jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, faol harakat qiladigan o'quvchilarda diqqatni jamlash, xotira, o'zini boshqarish, intizom va mas'uliyat kabi sifatlar yaxshiroq shakllanadi. Bu sifatlar esa o'quv jarayonida yuqori natijaga erishish uchun muhim hisoblanadi. Shu bois maktablarda jismoniy faollikni faqat sog'lomlashtirish vositasi sifatida emas, balki ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik omil sifatida ham baholash lozim. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatini oshirishda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish zarur. Jismoniy faollikni to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarning salomatligi mustahkamlanadi, o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi, darsdagi faolligi va o'zlashtirish darajasi yaxshilanadi [2].

Asosiy qism

O'quvchilarning jismoniy faolligi ularning kundalik hayotida bajaradigan harakat faoliyati, jismoniy tarbiya darslarida ishtiroki, sport to'garaklariga qatnashishi, tanaffus va bo'sh vaqtlarida faol harakat qilishi, turli sport o'yinlari va sog'lomlashtiruvchi mashqlar bilan shug'ullanishi orqali namoyon bo'ladi. Jismoniy faollik o'quvchi organizmining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Maktab yoshidagi bolalarda organizm doimiy o'sish va rivojlanish jarayonida bo'ladi. Shu sababli ularning harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyoji yuqori bo'ladi. Agar bu ehtiyoj to'g'ri tashkil etilgan jismoniy mashg'ulotlar orqali qondirilsa, o'quvchilarning sog'lig'i, ruhiy holati va o'quv faoliyati ijobiy tomonga o'zgaradi. Aksincha, harakatsizlik ortib borsa, charchoq, lohaslik, ortiqcha vazn, darsga qiziqishning pasayishi va ruhiy beqarorlik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Jismoniy faollikning akademik muvaffaqiyatga ta'siri bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, jismoniy mashqlar qon aylanishini yaxshilaydi va bosh miya faoliyatini faollashtiradi. Natijada o'quvchilarning diqqatni jamlash qobiliyati ortadi. Diqqatning barqaror bo'lishi esa dars materialini tushunish, eslab qolish va qayta bayon qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, jismoniy faollik xotira jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muntazam harakat faoliyati o'quvchining aqliy mehnatga tayyorgarligini oshiradi. Faol o'quvchi darsda berilgan ma'lumotni yaxshiroq qabul qiladi, mustaqil topshiriqlarni bajarishda kamroq charchaydi va o'z bilimini amaliyotda qo'llashga intiladi.

Uchinchidan, sport mashg'ulotlari o'quvchilarda intizom va mas'uliyatni shakllantiradi. Jismoniy tarbiya darslari va sport to'garaklarida qatnashgan o'quvchi belgilangan tartibga rioya qilish, mashqlarni ketma-ket bajarish, o'z natijasini kuzatish va maqsadga erishish uchun mehnat qilishni o'rganadi. Bu sifatlar o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega [3].

To'rtinchidan, jismoniy faollik o'quvchilarning ruhiy holatini barqarorlashtiradi. Dars yuklamasi, nazorat ishlari, baholash jarayonlari va ijtimoiy muhit ayrim o'quvchilarda stress yoki xavotirni kuchaytirishi mumkin. Sport mashg'ulotlari esa bunday holatlarni kamaytirishga yordam beradi. O'quvchi harakat qilganda kayfiyati ko'tariladi, o'zini yengil his qiladi va darsga nisbatan ijobiy munosabati ortadi.

Beshinchidan, jismoniy faollik o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Jamoaviy sport o'yinlari orqali o'quvchilar o'zaro muloqotga kirishadi, hamkorlik qiladi, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va jamoada harakat qilishni o'rganadi. Bu esa ularning sinf jamoasiga moslashuvi, darsdagi ishtiroki va o'z fikrini erkin bildirishiga yordam beradi. Akademik muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchida kuchli motivatsiya ham bo'lishi kerak. Jismoniy faollik motivatsiyani oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Sport mashg'ulotlarida kichik yutuqlarga erishgan o'quvchi o'z kuchiga ishonadi. Bu ishonch asta-sekin o'quv faoliyatiga ham ko'chadi. Masalan, sportda qat'iyat ko'rsatgan o'quvchi murakkab mavzuni o'zlashtirishda ham sabrliroq va faolroq bo'lishi mumkin. Maktab sharoitida jismoniy faollikni oshirish uchun turli shakl va usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli tashkil etish, tanaffuslarda qisqa harakatli mashqlar joriy qilish, sport to'garaklarini kengaytirish, sinflar o'rtasida musobaqalar o'tkazish, sog'lomlashtirish kunlari tashkil etish va o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Bunda o'qituvchining roli alohida ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarni faqat mashq bajarishga emas, balki sog'lom hayot tarziga, o'z ustida ishlashga va doimiy harakatda bo'lishga yo'naltirishi kerak. Fan o'qituvchilari esa dars jarayonida qisqa jismoniy daqiqalardan foydalanishi, uzoq vaqt davom etadigan aqliy yuklamalar orasida o'quvchilarga faol tanaffus berishi mumkin [4].

Quyidagi jadvalda jismoniy faollikning akademik muvaffaqiyatga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlari umumlashtirilgan.

№	Jismoniy faollik shakli	O'quvchida rivojlanadigan sifatlar	Akademik muvaffaqiyatga ta'siri
1	Jismoniy tarbiya darslarida muntazam qatnashish	Intizom, chidamlilik, harakat faolligi	Darsda faol ishtirok etish va charchoqning kamayishiga yordam beradi
2	Ertalabki badantarbiya va qisqa mashqlar	Tetiklik, kayfiyat, diqqat	Kun davomida diqqatni jamlash va o'quv materialini qabul qilish yaxshilanadi
3	Sport to'garaklarida ishtirok etish	Mas'uliyat, maqsadga intilish, qat'iyat	O'quv topshiriqlarini bajarishda izchillik va motivatsiya ortadi
4	Jamoaviy sport o'yinlari	Muloqot, hamkorlik, liderlik	Sinfdagi faollik, guruhda ishlash va fikr bildirish qobiliyati rivojlanadi
5	Tanaffuslarda faol harakat qilish	Ruhiy yengillik, harakatchanlik, emotsional barqarorlik	Keyingi darsga tayyorgarlik va aqliy faollik oshadi
6	Sport musobaqalarida qatnashish	Raqobatbardoshlik, jasorat, o'ziga ishonch	Murakkab vazifalarni bajarishda qat'iyat va o'z kuchiga ishonch kuchayadi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, jismoniy faollikning har bir shakli o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya

darslarida muntazam qatnashish o'quvchilarda intizom, harakat madaniyati va chidamlilikni rivojlantiradi. Bunday sifatlar dars jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki intizomli va chidamli o'quvchi topshiriqlarni vaqtida bajarishga, darsda faol qatnashishga va o'z o'quv faoliyatini nazorat qilishga ko'proq intiladi. Ertalabki badantarbiya va qisqa jismoniy mashqlar o'quvchini kun davomida tetik saqlashga yordam beradi. Ayniqsa, darsdan oldin yoki dars oralig'ida bajariladigan yengil mashqlar qon aylanishini faollashtiradi, uyquchanlikni kamaytiradi va diqqatni jamlashga yordam beradi. Bu holat o'quvchining yangi mavzuni tushunish va eslab qolish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sport to'garaklarida qatnashish o'quvchilarning maqsadga intilishi va mas'uliyatini oshiradi. Sportda yaxshi natijaga erishish uchun muntazam mashq qilish, murabbiyning ko'rsatmalariga rioya qilish va o'z ustida ishlash talab etiladi. Bu jarayon o'quvchida izchillik va qat'iyatni shakllantiradi. Ana shu sifatlar o'quv faoliyatida ham namoyon bo'lib, o'quvchining akademik natijalariga ijobiy ta'sir qiladi. Jamoaviy sport o'yinlari esa o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Futbol, voleybol, basketbol, gandbol kabi sport turlari orqali o'quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi, jamoa manfaatini tushunadi, mas'uliyatni bo'lishadi va hamkorlikda qaror qabul qilishni o'rganadi. Bu ko'nikmalar dars jarayonida guruhli topshiriqlarni bajarish, savol-javoblarda qatnashish va o'z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi.

Tanaffuslarda faol harakat qilish o'quvchilarning ruhiy va aqliy holatini tiklashda muhim hisoblanadi. Uzoq vaqt partada o'tirish o'quvchilarda charchoq va diqqatning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Faol tanaffuslar esa bunday holatning oldini oladi. O'quvchi qisqa vaqt harakat qilgandan so'ng keyingi darsga nisbatan tayyorroq, faolroq va diqqatliroq bo'ladi. Sport musobaqalarida qatnashish o'quvchilarda raqobatbardoshlik, jasorat va o'ziga ishonchni shakllantiradi. Musobaqa jarayonida

o'quvchi o'z imkoniyatlarini sinab ko'radi, natija uchun kurashadi, g'alaba va mag'lubiyatni to'g'ri qabul qilishni o'rganadi. Bu esa uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. O'ziga ishongan o'quvchi esa o'quv topshiriqlarini bajarishda ham faolroq bo'ladi. Umuman olganda, jadval tahlili jismoniy faollik o'quvchilar akademik muvaffaqiyatini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko'rsatadi. Bunda faqat jismoniy tarbiya darslari emas, balki maktabdagi umumiy faol harakat muhiti ham katta ahamiyatga ega. Maktabda sportga ijobiy munosabat shakllantirilsa, o'quvchilarning sog'lig'i, darsdagi faolligi va o'quv natijalari yaxshilanishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Jismoniy faollik o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash bilan birga, ularning diqqatini jamlash, xotirasini rivojlantirish, ruhiy barqarorligini ta'minlash, intizomini kuchaytirish va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Muntazam jismoniy mashg'ulotlarda qatnashadigan o'quvchilar dars jarayonida faolroq bo'ladi, o'quv materialini yaxshiroq qabul qiladi va topshiriqlarni bajarishda izchil harakat qiladi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari, harakatli o'yinlar, faol tanaffuslar va musobaqalar o'quvchilarning o'quvdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktablarda jismoniy faollikni oshirish uchun dars jarayonini sog'lomlashtiruvchi yondashuvlar bilan boyitish, sport to'garaklarini ko'paytirish, tanaffuslarda faol harakatni rag'batlantirish va o'quvchilarning qiziqishlariga mos sport tadbirlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'qituvchi, ota-ona va maktab jamoasining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois jismoniy faollikni o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida baholash

mumkin. Har tomonlama sog'lom, faol va motivatsiyaga ega o'quvchi nafaqat jismoniy, balki aqliy va ijtimoiy jihatdan ham muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Donnelly J.E., Hillman C.H., Castelli D. Physical activity, fitness, cognitive function, and academic achievement in children. Medicine & Science in Sports & Exercise. – 2016. – Vol. 48(6). – P. 1197–1222.

2. Singh A., Uijtdewilligen L., Twisk J.W.R., van Mechelen W., Chinapaw M.J.M. Physical activity and performance at school. Archives of Pediatrics & Adolescent Medicine. – 2012. – Vol. 166(1). – P. 49–55.

3. Trudeau F., Shephard R.J. Physical education, school physical activity, school sports and academic performance. International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity. – 2008. – Vol. 5. – P. 10.

4. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. – Geneva: WHO, 2020.

COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE ELECTRICAL AND HOME APPLIANCE MARKET AND ITS IMPACT

Kamolxodjayev Jamoliddin Sharobutdinovich
Tashkent State Technical University

Abstract

This scientific paper analyzes the factors shaping the competitive environment in the electrical and home appliance market, its impact on manufacturers and consumers, as well as the priority directions for the development of this market in Uzbekistan. In a market economy, competition is a key factor in promoting the innovative development of enterprises, improving product quality, and effectively satisfying consumer needs. The paper also examines the factors that intensify competition in the electrical and home appliance industry and their impact on economic efficiency.

Keywords

electrical equipment, home appliances, competitive environment, market economy, innovation, production efficiency, consumer, marketing, export potential.

ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA BOZORIDA RAQOBAT MUHITI VA UNING TA'SIRI

TDTU, Kamolxodjayev Jamoliddin SHarobutdinovich

Annotatsiya

соҳасида ҳал қилувчи рол ўйнамоқда, бу эса ҳудудий тадбиркорликнинг иқтисодий тизимдаги ўрнини янада оширади. Ҳудудий тадбиркорликнинг ривожланиш хусусиятларини таҳлил қилишда бир қатор муҳим жиҳатларни ажратиб кўрсатиш лозим. Биринчидан, ҳудудларнинг рақобатбардош устунликларидан самарали фойдаланиш асосида соҳавий ва ҳудудий кластерларни шакллантириш амалдаги амалиётнинг марказий йўналишига айланган. Кластерлашув механизми ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, қўшимча қиймат занжирини яратиш ва маҳаллий хомашёни чуқур қайта ишлаш имконини беради, бу эса ўз навбатида кичик ва ўрта корхоналарнинг инновацион фаоллигини рағбатлантиради. Иккинчидан, оилавий тадбиркорлик ва маҳаллалар даражасидаги кичик ишлаб чиқаришларнинг кенг қамровли жалб этилиши ҳудудий ривожланишнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамиятини оширади. Давлат томонидан аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш, имтиёзли кредитлар ажратиш, ер ижараси бўйича енгилликлар бериш ва солиқ имтиёзларини қўллаш орқали оилавий бизнеснинг барқарорлашувига эришилмоқда. Учинчидан, ҳудудлардаги инфраструктура ва логистика имкониятларининг нотекис тақсимланиши ҳудудий тадбиркорлик фаоллигидаги фарқларни келтириб чиқаради. Тошкент шаҳри ва айрим вилоятларда бизнес субъектларининг зич жойлашуви кузатилса, чекка ва шароити оғир ҳудудларда тадбиркорлик муҳитини яхшилаш учун мақсадли давлат дастурлари ва инвестициялар талаб этилади.

Инвестицион фаолликни таъминлаш истиқболлари ҳудудий тадбиркорликнинг кейинги ривожланиши билан узвий боғлиқ. Ўзбекистонда инвестиция муҳитини яхшилаш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар, жумладан махсус иқтисодий зоналар, кичик саноат зоналари ва инновацион ҳудудларнинг кенгайтирилиши хорижий ва маҳаллий инвестицияларни жалб

қилишда муҳим восита бўлиб хизмат қилмоқда. Махсус иқтисодий зоналардаги саноат ишлаб чиқаришининг ўсиши, солиқ ва божхона имтиёзлари, шунингдек, соддалаштирилган маъмурий тартиб-таомиллар инвеститорлар учун жозибадор шарт-шароитлар яратмоқда. Шу билан бирга, кичик ва ўрта бизнесни молиялаштиришда халқаро молия институтларининг иштироки, жумладан кафолат механизмлари ва имтиёзли кредит линиялари орқали молиялаштириш бўшлиғини қисқартиришга эришилмоқда. Венчур капитал бозорининг шаклланиши, стартап экотизимининг ривожланиши ва ёш тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш дастурлари инновацион лойиҳаларни ҳудудларга олиб киришда янги имкониятлар очиб бермоқда. Инвестицион фаолликни оширишнинг истиқболли йўналишлари сифатида қуйидагиларни белгилаш мумкин. Аввало, ҳудудларнинг инвестицион салоҳиятини баҳолашда панел маълумотлари асосидаги таҳлиллар, бозор ҳажми, меҳнат харажатлари ва рақамли инфратузилма кўрсаткичларини ҳисобга олиш зарурати мавжуд. Бундай ёндашув ҳудудларни самарадорлик ва потенциал индекслари бўйича гуруҳлашга, етакчи ва орқада қолган ҳудудларни аниқлашга имкон беради. Иккинчидан, инфратузилмани модернизациялаш, транспорт-логистика коридорларини ривожлантириш ва энергия таъминотини барқарорлаштириш инвестицияларни жалб қилишнинг асосий шартидир. Учинчидан, тадбиркорлик экотизимининг барча иштирокчилари — давлат органлари, молия институтлари, илмий-тадқиқот марказлари ва бизнес бирлашмалари ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш инновацион ғояларни тижоратлаштириш ва экспортга йўналтирилган ишлаб чиқаришни кенгайтиришга хизмат қилади. Тўртинчидан, инсон капиталини ривожлантириш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш ва аёллар ҳамда

ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш орқали ҳудудий бизнеснинг инклюзивлигини ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Ҳудудий тадбиркорликни ривожлантириш ва инвестицион фаолликни таъминлаш жараёнида мавжуд муаммолар, жумладан молиялаштиришга кириш имкониятларининг чекланганлиги, инфратузилма номувофиқлиги ва ҳудудлараро фарқларнинг сақланиб қолиши тизимли ёндашувни талаб қилади. Бу муаммоларни ҳал этишда давлат сиёсатининг изчиллиги, институционал муҳитнинг барқарорлиги ва хусусий секторнинг фаол иштироки ҳал қилувчи омиллардир. Ўзбекистон 2030 стратегияси доирасида кичик ва ўрта бизнеснинг ЯИМдаги улушини ошириш, янги иш ўринларини яратиш ва экспорт ҳажмини кенгайтириш бўйича белгиланган мақсадларга эришиш ҳудудий тадбиркорликнинг сифатли ўсишини таъминлашга боғлиқ. Шундай қилиб, ҳудудий тадбиркорликнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда инвестицион фаолликни рағбатлантириш миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, ҳудудларни мутаносиб ривожлантириш ва аҳоли фаровонлигини яхшилашнинг асосий шарти сифатида намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Искандаров У. Ҳудудларда тадбиркорликни ривожлантириш // Scientific Journal of Science and Innovation. – 2024. – № 6. – Б. 1–8.

2. Курпаяниди К.И., Ашуров М.А. Ўзбекистонда тадбиркорлик муҳитининг замонавий ҳолати ва уни самарали ривожлантириш муаммоларини баҳолаш: Монография. – Тошкент: GlobeEdit Academic Publishing, 2019. – 214 б.

3. Аҳмаджонов Ф.А. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожланиш босқичлари // Тафаккур манзили. – 2022. – № 2. – Б. 11–17.

4. Исраилов Р. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш масалалари // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2024. – Т. 4, № 9. – DOI: 10.47390/SPR1342V4I9Y2024N13.

5. Ғойибназаров Б.К., Раҳмонов Ҳ.О., Отажонов Ш.И. ва бошқ. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик – мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётини юксалтириш омили: Монография. – Тошкент: Фан, 2011. – 184 б.

THE CIVIL LAW NATURE AND FUNCTIONS OF PERSONAL NON-PROPERTY RIGHTS IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

Ikhtiyor Bakhtiyorov
Independent Researcher (PhD)
E-mail: ikhtiyor.bakhtiyorov@gmail.com

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of the civil law nature, legal essence, and principal functions of personal non-property rights in the digital environment. It examines the role of these rights in identifying the results of intellectual activity and highlights their importance in ensuring the legal and social connection between the author and the work. The distinctive features of the regulation of personal non-property rights in continental and Anglo-Saxon legal systems are comparatively analyzed. Furthermore, the article substantiates the transformation of these rights in the context of the development of digital technologies, internet platforms, and the digital economy, their impact on the legal regime governing intellectual property objects in civil transactions, and their significance in identifying the right holder, ensuring the authenticity of works, and maintaining the stability of legal transactions.

Keywords

personal non-property rights, copyright, intellectual property, digital environment, digital economy, digital technologies, results of intellectual activity, exclusive rights, right holder, continental legal system, Anglo-Saxon legal system, intellectual property objects.

РАҚАМЛИ МУҲИТДА ШАХСИЙ НОМУЛКИЙ ҲУҚУҚЛАРНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАБИАТИ ВА ФУНКЦИЯЛАРИ

Ихтиёр Бахтиёров

Мустақил изланувчиси (PhD)
E-mail: ikhtiyor.bakhtiyorov@gmail.com

Аннотация. Мақолада рақамли муҳитда шахсий номулкий ҳуқуқларнинг фуқаролик-ҳуқуқий табиати, ҳуқуқий моҳияти ҳамда асосий функциялари илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шахсий номулкий ҳуқуқларнинг интеллектуал фаолият натижаларини идентификация қилишдаги ўрни, муаллиф ва асар ўртасидаги ҳуқуқий ҳамда ижтимоий боғлиқликни таъминлашдаги аҳамияти очиб берилган. Континентал ва англо-саксон ҳуқуқ тизимларида шахсий номулкий ҳуқуқларни ҳуқуқий тартибга солишнинг ўзига хос хусусиятлари қиёсий-ҳуқуқий таҳлил қилинган. Шунингдек, рақамли технологиялар, интернет платформалари ва рақамли иқтисодиёт ривожланиши шароитида мазкур ҳуқуқларнинг трансформацияси, уларнинг интеллектуал мулк объектларининг фуқаролик муомаласидаги ҳуқуқий режимига таъсири ҳамда ҳуқуқ эгасини аниқлаш, асарнинг ҳақиқийлиги ва ҳуқуқий муомаланинг барқарорлигини таъминлашдаги аҳамияти асослаб берилган.

Калит сўзлар: шахсий номулкий ҳуқуқлар, муаллифлик ҳуқуқи, интеллектуал мулк, рақамли муҳит, рақамли иқтисодиёт, рақамли технологиялар, интеллектуал фаолият натижалари, мутлақ ҳуқуқ, ҳуқуқ эгаси, континентал ҳуқуқ тизими, англо-саксон ҳуқуқ тизими, интеллектуал мулк объектлари.

Муаллифлик ҳуқуқи тизими ҳозирги замонда умумэътироф этилган икки асосий ҳуқуқий институтдан иборат бўлиб, улар шахсий номулкий ҳуқуқлар **ҳамда** мулкий хусусиятга эга бўлган мутлақ (истисно) ҳуқуқ ҳисобланади. Мазкур таснифнинг ўзиёқ шахсий номулкий ҳуқуқларнинг асосий вазифаси ижодкорнинг иқтисодий эмас, балки унинг шахси билан боғлиқ бўлган номоддий манфаатларини ҳуқуқий муҳофаза қилишдан иборат эканлигини кўрсатади. Бироқ

ушбу ҳуқуқларнинг аҳамияти фақат номоддий манфаатларни ҳимоя қилиш билан чекланмайди, балки улар муаллифлик ҳуқуқининг бутун тизимида бир қатор муҳим функцияларни ҳам бажаради.

Шахсий номулкий ҳуқуқларнинг ҳуқуқий табиатини тўғри англаш, аввало, уларнинг муаллифлик ҳуқуқини тартибга солиш тизимидаги ўрни ва вазифасини белгилаб олишни талаб қилади. Чунки айнан мазкур ҳуқуқларнинг мақсади ва функцияларини тўғри баҳолаш келгусида қонунчиликни такомиллаштиришда қайси ҳуқуқий моделни танлаш лозимлигини белгилайди. Шу билан бирга, шахсий номулкий ҳуқуқларнинг вазифаси тарихий тараққиёт давомида ўзгармас категория ҳисобланмайди. Жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий ва технологик ривожланиши, шунингдек, муайян давлатнинг ҳуқуқий анъаналари мазкур ҳуқуқларнинг мазмуни ҳамда уларни тартибга солувчи ҳуқуқий нормаларнинг такомиллашувига бевосита таъсир кўрсатади. Шу боис замонавий ахборот жамияти шароитида шахсий номулкий ҳуқуқларга нисбатан мавжуд назарий ёндашувларни қайта кўриб чиқиш объектив заруратга айланмоқда[1].

Шахсий номулкий ҳуқуқлар бир нечта вазифани бажариши мумкин бўлсада, уларнинг энг асосий функцияси муайян шахсни интеллектуал фаолият натижасининг яратувчиси сифатида аниқлаштиришдан иборат. Бунда муаллиф билан у яратган асар ўртасида ҳуқуқий ва ижтимоий боғлиқлик вужудга келади. Аслида, бу муайян шахснинг ижодкор сифатидаги ижтимоий мақомини тан олишни англатади.

Ижтимоий назарияда таъкидланганидек, инсон ўзини жамиятдаги кўплаб ижтимоий муносабатлар ичида айнан ўзи учун энг муҳим бўлган ижтимоий роллар орқали англайди ва ўз шахсиятини шу роллар билан боғлайди.

[1] Cornish C. (1996) Intellectual Property. London: Sweet and Maxwell, 722 p.

Муаллифлик ҳам шахснинг ана шундай муҳим ижтимоий ролларидан бири бўлиб, унинг ҳуқуқий эътирофи шахсий номулкий ҳуқуқлар орқали таъминланади[2].

Бунинг натижасида икки хил ҳуқуқий оқибат юзага келади. Биринчидан, муаллифнинг ижодкор сифатида эътироф этилиши унинг шахсий манфаатлари учун муҳим аҳамият касб этади. Бу эътироф муаллифнинг жамиятдаги ижтимоий мақомини белгилайди, унинг ўзини баҳолашига, ижодий обрўсига ва келгусида ўз фаолиятидан иқтисодий манфаат олиш имкониятларига бевосита таъсир кўрсатади.

Илмий адабиётларда қайд этилганидек, муаллиф меҳнатининг ижтимоий қадри жамоатчиликнинг янги асарга бўлган қизиқиши, унинг муҳокамаси ва берилган баҳолари орқали намоён бўлади. Шу сабабли муаллиф учун ўз ижод натижасини индивидуаллаштириш, уни ўз ғояси ва мақсадига энг мувофиқ шаклда жамиятга тақдим этиш ҳамда асар билан шахсий алоқасини сақлаб қолиш имконияти алоҳида аҳамиятга эга[3].

Иккинчидан, муаллифни идентификация қилиш жамият ва фуқаролик муомаласи манфаатлари нуқтаи назаридан ҳам зарур ҳисобланади. Чунки интеллектуал мулк объектларининг иқтисодий муомалада қонуний иштирок этиши уларнинг ҳуқуқ эгасини аниқ белгилашни талаб қилади. Моддий ашёлардан фарқли равишда номоддий объектларни физик белгилари орқали индивидуаллаштириш мумкин эмас. Шунинг учун уларни ҳуқуқий муомалага киритиш махсус ҳуқуқий механизмлар орқали амалга оширилади.

Е.А. Суханов таъкидлаганидек, ижод натижалари бир вақтнинг ўзида ҳам муаллиф шахсидан тўлиқ ажралиши мумкин эмас, ҳам оддий мулк объектлари

[2] Дозорцев В.А. Понятие исключительного права // Юридический мир. 2000. № 4. С. 4–9.
[3] Хабибулин А.Г.. Рахимов Р.А. Государственная идентичность как элемент правового статуса личности // Государство и право. 2000. № 5. С. 5–11.

каби бутунлай бегоналаштирилиши мумкин эмас. Шу сабабли интеллектуал мулк институтини ашёвий ҳуқуқлар доирасида тўлиқ изоҳлаш имкони мавжуд эмас[4].

В.А. Дозорцевнинг фикрича, фуқаролик муомаласида муаллифлик ҳуқуқи ва муаллиф номи ҳуқуқи энг аввало дастлабки ҳуқуқ эгасини индивидуаллаштириш вазифасини бажаради. Кейинчалик мазкур объектга бўлган мулкий ҳуқуқлар бошқа шахсларга ўтганда ҳам ҳуқуқий ворисликнинг қонунийлиги айнан шу бошланғич идентификация орқали аниқланади. Шу маънода муаллифлик ҳуқуқи ва муаллиф номи ҳуқуқи мулкий ҳуқуқларнинг кейинги ҳаракати учун ҳуқуқий бошланғич нуқта вазифасини бажаради[5].

Профессор В.В. Ровний ҳам шахсий номулкий ҳуқуқлар билан интеллектуал мулкнинг иқтисодий муомаласи ўртасидаги узвий боғлиқликка алоҳида эътибор қаратади. Унинг фикрича, мутлақ ҳуқуқларнинг фуқаролик муомаласида эркин ҳаракатланиши айнан муаллифнинг ажралмас шахсий ҳуқуқлари билан таъминланади. Муаллифлик ҳуқуқи мутлақ шахсий ҳуқуқ сифатида бегоналаштирилмайди, аммо айнан шу ҳуқуқ мулкий ҳуқуқларнинг юзага келиши ва кейинги муомаласининг ҳуқуқий асосини ташкил этади. Шу боис шахсий номулкий муносабатлар фуқаролик ҳуқуқи предметида мулкий муносабатлар билан узвий боғлиқ бўлган, ўзига хос «оралиқ» ҳуқуқий институт сифатида намоён бўлади[6].

Шундай қилиб, муаллифлик ҳуқуқида икки босқичли идентификация модели шаклланади. Биринчи босқичда муаллиф шахси идентификация қилинади, иккинчи босқичда эса айнан шу шахс орқали интеллектуал мулк объекти ҳуқуқий

[4] Суханов Е.А. Лекции о праве собственности. М., 1991. С. 28–29.
[5] Дозорцев В.А. Понятие исключительного права // Юридический мир. 2000. № 4. С. 7.
[6] Ровный В.В. Предмет гражданского права в Гражданском кодексе Российской Федерации / Граж данское право в системе права. Материалы международной научно-практической конференции (в рам ках ежегодных цивилистических чтений). Алматы, 2007. С. 59.

жиҳатдан индивидуаллаштирилади. Мазкур ёндашув бир вақтнинг ўзида муаллиф, ҳуқуқ эгаси, тижорат фойдаланувчиси ҳамда истеъмолчилар манфаатлари ўртасидаги мувозанатни таъминлашга хизмат қилади. Бу айниқса рақамли муҳитда долзарб аҳамият касб этади, чунки рақамли технологиялар шароитида муаллиф билан унинг асари ўртасидаги табиий боғлиқлик сезиларли даражада сусаяди. Шу билан бирга, айнан ушбу икки босқичли идентификация механизми шахсий номулкий ҳуқуқларнинг фуқаролик муомаласига таъсирини билвосита намоён қилади ва турли давлатларда ушбу институтни ҳуқуқий тартибга солиш моделларининг фарқланишига сабаб бўлган.

Шахсий номулкий ҳуқуқларнинг аҳамияти муаллифлик ҳуқуқининг бутун ривожланиш тарихи давомида эътироф этиб келинган. Муаллифлик тушунчаси (мустақил ҳуқуқ сифатида эмас, балки ҳуқуқий категория сифатида) жамият тараққиётининг нисбатан илк босқичларидаёқ шаклланган[11]. Бироқ турли мамлакатларда мазкур муносабатларни ҳуқуқий тартибга солишнинг ўзига хос моделлари вужудга келган бўлиб, уларнинг танланиши, асосан, муайян давлатнинг тарихий ва маданий ривожланиш хусусиятлари билан белгиланган. Шу боис хорижий ҳуқуқий тажрибани миллий қонунчиликка имплементация қилишда унинг шаклланиш тарихи ва ҳуқуқий анъаналари инобатга олиниши лозим.

Континентал ҳуқуқ тизимида муаллиф ҳақидаги яхлит назария нисбатан кеч шаклланган. XVIII аср бошларида «муаллиф» тушунчаси икки хил ёндашувни бир томондан ҳунарманд, иккинчи томондан эса илҳомланган ижодкор ҳақидаги тасаввурларни қамраб олган бўлса, XVIII аср охирига келиб айнан иккинчи

ёндашув мустақил концепция сифатида шаклланиб, кейинчалик роман-герман ҳуқуқ тизимида устувор ўрин эгаллади[7].

Бироқ мазкур романтик концепция муаллифнинг шахси билан асар ўртасидаги ажралмас ҳуқуқий алоқани устувор деб ҳисоблагани ҳолда, бозор муносабатлари ва тадбиркорлик эҳтиёжлари билан ҳар доим ҳам мувофиқ келавермайди. Шу сабабли шахсий номулкий ҳуқуқлар анъанавий фуқаролик ҳуқуқидаги мулкий муносабатлар моделига тўлиқ мос келмайдиган ҳуқуқий институт сифатида баҳоланади[13].

Шу муносабат билан роман-герман ҳуқуқ тизимида шахсий номулкий ҳуқуқлар, аввало, муаллиф шахсини муҳофаза қилиш воситаси сифатида қабул қилиниб, уларга ҳар қандай тажовузга нисбатан қатъий ёндашув шаклланган. Шу билан бирга, замонавий рақамли иқтисодиёт шароитида мазкур ҳуқуқларга нисбатан муайян истисноларни назарда тутиш тенденцияси ҳам кузатилмоқда.

Англо-саксон ҳуқуқ тизимида эса вазият бошқача бўлиб, муаллифлик ҳуқуқи назарияси романтизм ғоялари шаклланишидан аввал юзага келгани сабабли, муаллифнинг шахсий ҳуқуқларини алоҳида муҳофаза қилиш ғояси кенг ривожланмаган. Профессор В. Корниш таъкидлаганидек, англо-америка ҳуқуқий анъанаси муаллифларга махсус ҳуқуқий муҳофаза бериш ғоясига нисбатан эҳтиёткор муносабатда бўлган[8].

Шу билан бирга, Англияда муаллифлик ҳуқуқи тарихи ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, у дастлаб нашриётлар ўртасидаги иқтисодий манфаатлар тўқнашуви натижасида шаклланган. Шу сабабли муаллифлик ҳуқуқи, энг аввало, асарларнинг иқтисодий муомаласини ташкил этиш воситаси сифатида

[7] Woodmansee M. The Genius and the Copyright: Economic and Legal Conditions of the Emergence of the “Author” // Eighteenth Century Studies. 1984. Vol. 17. P. 426–427.
[8] Cornish C. (1996) Intellectual Property. London: Sweet and Maxwell, 722 p.

ривожланган. Континентал ҳуқуқ тизимидан фарқли равишда, мазкур моделда асосий эътибор муаллифнинг ижодий фаолиятини рағбатлантиришга эмас, балки яратилган асарларни имкони қадар кенг тарқатиш ва улардан самарали иқтисодий фойдаланишга қаратилган. Мазкур ёндашув вақт ўтиши билан англо-саксон ҳуқуқ тизимининг фундаментал хусусиятларидан бирига айланиб, бугунги кунгача ўз аҳамиятини сақлаб келмоқда. Шу боис ушбу ҳуқуқий анъанани тубдан ўзгартириш бутун ҳуқуқ тизимини қайта шакллантиришни талаб қилади.

Бундай ҳуқуқий ёндашув шароитида шахсий номулкий ҳуқуқлар айрим ҳолларда интеллектуал мулк объектларидан эркин ва самарали иқтисодий фойдаланишга тўсқинлик қилувчи институт сифатида баҳоланади. Шу билан бирга, муаллифнинг шахсий манфаатлари мутлақо инкор этилмайди, балки уларни ҳимоя қилиш бошқа ҳуқуқий воситалар орқали таъминланиши мумкинлиги эътироф этилади. Англо-америка ҳуқуқ назариясида ижтимоий манфаатлар ҳам муҳим аҳамият касб этади, бироқ улар алоҳида муаллиф шахсининг манфаатларини ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан эмас, балки муайян қонунчилик ечимининг бутун жамият учун қандай ижтимоий ва иқтисодий натижалар келтириб чиқариши нуқтаи назаридан баҳоланади. Шу муносабат билан инглиз олимлари таъкидлаганидек, замонавий муаллифлик ҳуқуқи қонунчилигининг ривожланишида англо-америка ҳуқуқ тизимида иқтисодий ва ижтимоий омиллар ҳал қилувчи аҳамият касб этса, континентал Европа давлатларида табиий ҳуқуқ ғоялари ҳамда муаллиф шахсини муҳофаза қилиш устувор аҳамиятга эга ҳисобланади.

Натижада англо-саксон ҳуқуқ анъанасида асар, биринчи навбатда, эркин иқтисодий муомала объекти сифатида қаралади. Ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш ҳуқуқи асосан мазкур объектга эгалик қилувчи шахс ёки

компаниянинг иқтисодий манфаатлари билан белгиланади. Табиийки, бундай ёндашувда муаллифнинг шахсий номулкий ҳуқуқлари муаллифлик ҳуқуқининг асосий иқтисодий функцияси билан маълум даражада қарама-қаршиликка киришади. Шу сабабли узоқ вақт давомида ушбу ҳуқуқларга алоҳида ҳуқуқий муҳофаза бериш англо-саксон ҳуқуқ тизими учун хос хусусият ҳисобланмаган.

Бироқ XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб англо-саксон ҳуқуқ тизимида ҳам шахсий номулкий ҳуқуқларга нисбатан муносабат сезиларли даражада ўзгара бошлади. Бунинг асосий сабабларидан бири қонунчиликни континентал Европа давлатлари ҳуқуқи билан уйғунлаштириш зарурати бўлса, иккинчиси шахсий номулкий ҳуқуқларнинг фақат романтик назария эмас, балки замонавий иқтисодиёт ва ахборот жамияти учун ҳам муҳим аҳамият касб этишини англаш билан боғлиқдир. Айниқса, рақамли технологияларнинг кенг жорий этилиши мазкур жараённи янада тезлаштирди. Чунки рақамли муҳитда асарлардан глобал миқёсда фойдаланиш имконияти кенгайди, шу билан бирга уларни аниқ идентификация қилиш, муаллиф билан боғлаш ва ҳуқуқ эгасини белгилашга хизмат қилувчи ҳуқуқий механизмларга бўлган эҳтиёж ҳам ортиб борди. Ахборот жамияти шароитида шахсий номулкий ҳуқуқлар энди фақат муаллифнинг шахсий манфаатларини ҳимоя қилиш воситаси эмас, балки глобал рақамли муҳитда интеллектуал мулк объектларининг ҳуқуқий муомаласини таъминловчи муҳим ҳуқуқий институт сифатида ҳам намоён бўлмоқда[9].

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Cornish C. (1996) Intellectual Property. London: Sweet and Maxwell, 722 p.

[9] Holderness M. (1998) Moral Rights and Authors’ Rights: The Keys to the Information Age. The Journal of Information Law and Technology, no 1. Available at: https://www2.warwick.ac.uk/fac/soc/law/elj/jilt/1998_1/holderness/ (accessed: 9.10.2016)

2. Дозорцев В.А. Понятие исключительного права // Юридический мир. 2000. № 4. С. 4–9.

3. Хабибулин А.Г.. Рахимов Р.А. Государственная идентичность как элемент правового статуса личности // Государство и право. 2000. № 5. С. 5–11.

4. Суханов Е.А. Лекции о праве собственности. М., 1991. С. 28–29.

5. Дозорцев В.А. Понятие исключительного права // Юридический мир. 2000. № 4. С. 7.

6. Ровный В.В. Предмет гражданского права в Гражданском кодексе Российской Федерации / Граж данское право в системе права. Материалы международной научно-практической конференции (в рам ках ежегодных цивилистических чтений). Алматы, 2007. С. 59.

7. Woodmansee M. The Genius and the Copyright: Economic and Legal Conditions of the Emergence of the “Author” // Eighteenth Century Studies. 1984. Vol. 17. P. 426–427.

8. Cornish C. (1996) Intellectual Property. London: Sweet and Maxwell, 722 p.

9. Holderness M. (1998) Moral Rights and Authors’ Rights: The Keys to the Information Age. The Journal of Information Law and Technology, no 1. Available at: https://www2.warwick.ac.uk/fac/soc/law/elj/ jilt/1998_1/holderness/ (accessed: 9.10.2016)

CIVIL LAW FOUNDATIONS FOR THE JOINT EXERCISE OF EXCLUSIVE RIGHTS (ON THE EXAMPLE OF TRADEMARKS)

Kamoljon Khimmat Ugli Rakhmatov
Independent Researcher (PhD)

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the civil law foundations for the joint exercise of exclusive rights, using trademarks as an example. In particular, it examines the legal nature, civil law regime, and legal significance of trademark coexistence agreements. Based on the legislation and judicial practice of the United States, the European Union, Germany, the United Kingdom, and China, the study comparatively analyzes the application of this legal institution, the mutual rights and obligations of trademark owners, and the legal approaches aimed at protecting consumers from confusion, ensuring fair competition, and safeguarding public interests. Furthermore, the article substantiates the legal basis for introducing trademark coexistence agreements into the legislation of the Republic of Uzbekistan, explores the legal mechanism governing their implementation, and presents scientific proposals and recommendations for further improvement of this legal institution.

Keywords

exclusive rights, intellectual property, trademark, trademark coexistence, coexistence agreement, consent of the right holder, protection of consumers from confusion, fair competition, legal regime, civil law relations, comparative legal analysis, intellectual property law.

МУТЛАҚ ҲУҚУҚЛАРНИ БИРГАЛИКДА АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ (ТОВАР БЕЛГИЛАРИ МИСОЛИДА)

Мустақил изланувчи (PhD)
РАХМАТОВ КАМОЛЖОН ХИММАТ ЎҒЛИ

Аннотация. Мақолада мутлақ ҳуқуқларни биргаликда амалга оширишнинг фуқаролик-ҳуқуқий асослари товар белгилари мисолида комплекс таҳлил қилинган. Хусусан, товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги келишувларнинг (coexistence agreement) ҳуқуқий табиати, фуқаролик-ҳуқуқий режими ҳамда ҳуқуқий аҳамияти тадқиқ этилган. АҚШ, Европа Иттифоқи, Германия, Буюк Британия ва Хитой қонунчилиги ҳамда суд амалиёти асосида мазкур институтнинг қўлланилиш хусусиятлари, ҳуқуқ эгаларининг ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлари, истеъмолчиларни чалкашликдан ҳимоя қилиш, инсофли рақобатни таъминлаш ва жамоат манфаатларини муҳофаза қилиш билан боғлиқ ҳуқуқий ёндашувлар қиёсий-ҳуқуқий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек, товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги келишувларни Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига жорий этишнинг ҳуқуқий асослари, унинг ҳуқуқий механизми ҳамда мазкур институтни такомиллаштиришга қаратилган илмий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: мутлақ ҳуқуқ, интеллектуал мулк, товар белгиси, товар белгисидан биргаликда фойдаланиш, coexistence agreement, ҳуқуқ эгасининг розилиги, истеъмолчиларни чалкашликдан ҳимоя қилиш, инсофли рақобат, ҳуқуқий режим, фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар, қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, интеллектуал мулк ҳуқуқи.

Интеллектуал мулк ҳуқуқининг ривожланиши, рақамли иқтисодиётнинг кенгайиши ҳамда бозор муносабатларининг глобаллашуви мутлақ ҳуқуқларни амалга оширишнинг анъанавий моделларини қайта кўриб чиқиш заруратини юзага келтирмоқда. Агар илгари мутлақ ҳуқуқлар, хусусан товар белгисига бўлган

ҳуқуқ, фақат битта ҳуқуқ эгаси томонидан мустақил ва эксклюзив тарзда амалга ошириладиган ҳуқуқ сифатида талқин қилинган бўлса, бугунги кунда халқаро савдо муносабатлари, трансмиллий корпорациялар фаолияти, корпоратив қайта ташкил этиш жараёнлари, франчайзинг, лицензиялаш ҳамда қўшма инвестиция лойиҳаларининг кенгайиши натижасида мазкур ҳуқуқларни биргаликда амалга оширишга бўлган эҳтиёж тобора ортиб бормоқда.

Фуқаролик ҳуқуқи назариясида мутлақ ҳуқуқлар ўз эгасига ҳуқуқ объектидан мустақил фойдаланиш ва учинчи шахслардан ушбу ҳуқуққа аралашмасликни талаб қилиш имкониятини берувчи мутлақ ҳуқуқий ҳукмронлик сифатида баҳоланади. Шу боис мутлақ ҳуқуқларни бир неча шахс томонидан биргаликда амалга ошириш масаласи классик ҳуқуқ назарияси нуқтаи назаридан муайян назарий баҳсларни келтириб чиқаради. Бироқ амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, айрим ҳолларда ҳуқуқ эгаларининг ўзаро келишуви асосида мутлақ ҳуқуқларни чекланган доирада биргаликда амалга ошириш нафақат хусусий манфаатларга, балки фуқаролик муомаласи барқарорлиги, иқтисодий муносабатларнинг узлуксизлиги ва рақобат муҳитининг ривожланишига ҳам хизмат қилади.

Мазкур масала интеллектуал мулк объектлари ичида энг кўп товар белгилари соҳасида намоён бўлади. Амалда бир хил ёки ўхшаш товар белгиларидан бир вақтнинг ўзида турли ҳуқуқ эгалари томонидан фойдаланиш эҳтиёжи корпоратив қайта ташкил этиш, бизнесни бўлиш, мерос ҳуқуқи, лицензия муносабатлари, франчайзинг, қўшма корхоналар ҳамда халқаро тижорат муносабатлари натижасида юзага келади. Бундай муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солишнинг энг самарали воситаларидан бири сифатида товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги келишувлар (coexistence agreement) шаклланган.

Хорижий давлатлар амалиёти шуни кўрсатадики, бундай келишувлар АҚШ, Европа Иттифоқи, Германия, Буюк Британия, Франция, Хитой ва бошқа мамлакатларда интеллектуал мулк муносабатларининг муҳим ҳуқуқий инструменти сифатида эътироф этилади. Бироқ мазкур келишувларнинг ҳуқуқий кучи ҳуқуқ эгаларининг ўзаро розилиги билангина белгиланмайди. Судлар ва патент идоралари уларни баҳолашда истеъмолчиларни чалкашликдан ҳимоя қилиш, инсофли рақобатни таъминлаш, бозорда монополлашувнинг олдини олиш ҳамда жамоат манфаатларини муҳофаза қилиш каби омилларни устувор мезон сифатида қўллайди.

Ўзбекистон қонунчилигида товар белгисидан биргаликда фойдаланиш муносабатларини тартибга солувчи махсус ҳуқуқий механизм мавжуд эмас. Шу билан бирга, амалдаги фуқаролик ва интеллектуал мулк қонунчилигида ҳуқуқ эгасининг розилиги, шартнома эркинлиги ҳамда мутлақ ҳуқуқларни амалга ошириш чегараларига оид қоидалар мазкур институтни миллий ҳуқуқ тизимига имплементация қилиш учун муайян ҳуқуқий асосларни яратади. Бироқ товар белгисидан биргаликда фойдаланишнинг ҳуқуқий табиати, унинг фуқаролик-ҳуқуқий режими, ҳуқуқ эгаларининг ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлари, истеъмолчилар ҳуқуқларини муҳофаза қилиш кафолатлари ҳамда рақобат қонунчилиги билан ўзаро боғлиқ масалалар миллий ҳуқуқшуносликда ҳануз етарли даражада комплекс тадқиқ этилмаган.

АҚШда товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги битимлар қонунан мумкин, аммо улар фақат хусусий келишув сифатида эмас, балки жамият манфаатлари ва истеъмолчиларни чалкашликдан ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан баҳоланади. Судлар бундай битимларнинг ҳуқуқий кучини баҳолар экан,

истеъмолчида товар келиб чиқиши, ишлаб чиқарувчи ёки хизмат кўрсатувчи тўғрисида адашиш эҳтимоли бор-йўқлигини асосий мезон сифатида олади[1].

“Times Mirror Magazines Inc. v. Field & Stream Licenses Co.” Низоли иши[2] мисолида, суд битимни бекор қилишдан бош тортган, чунки тарафлар ўртасидаги келишув натижасидаги чалкашлик истеъмолчилар учун зарарли оқибатларга олиб келмайди ва жамият манфаатларига зид эмас, деб топилган. Бундан хулоса қилинадики, **АҚШ судлари фақатгина субъектив “чалкашлик эҳтимоли” асосида эмас, балки бу ҳолат жамият манфаатларини реал равишда бузадими-йўқми** деган мезонга кўра қарор чиқаради.

Шунингдек, **“Ron Cauldwell Jewelry, Inc. v. Clothestime Clothes, Inc.”** ишида ҳам суд “Eye Candy” товар белгисининг икки томонлама фойдаланишини истеъмолчи манфаатлари нуқтаи назаридан хавфли деб ҳисобламайди ва шартномавий эркинликка устувор аҳамият беради. Суд бу ерда хусусий ҳуқуқ муносабатларига учинчи шахсларнинг асоссиз аралашувига чеклов қўйиш зарурлигини таъкидлайди[3]. Бироқ, айрим ҳолатларда суд жамият саломатлигига бевосита таъсир кўрсатувчи товарлар (масалан, дори воситалари) бўйича эҳтиёткор ёндашувни қўллайди. **“Merrell Dow Inc. v. Allergan Inc.”** ишида суд ўхшаш товар белгилари остида дори воситаларини ишлаб чиқариш истеъмолчиларда жиддий чалкашликка ва саломатликка зарарга сабаб бўлиши мумкинлиги сабабли шартномани бекор қилади.

[1] Spencer T. Wiles. The TTAB Shold Drink a Beer and Relax: Implications for Trademark Consent Agreements in the Craft Brewing Industry After In re Bay State Brewing Company, Inc. – P. 130

[2] Times Mirror Magazines Inc. v. Fiels & Stream Licenses Co. 103 F. Supp. 2d 711 (S.D.N.Y. 2000), aff’d, 294 F.3d 383 (2d. Cir. 2002). URL: https://caselaw.findlaw.com/us-2nd-circuit/1372486.html

[3] https://law.justia.com/cases/federal/district-courts/FSupp/948/1050/2098685/

Патент идораси ҳам ушбу нуқтаи назарга қўшилади. **“In re Bay State Brewing Company, Inc.”** иши[4]да “Time Traveler” ва “Time Traveler Blonde” белгиларининг ўзаро келишуви мавжуд бўлган бўлса-да, чалкашлик хавфи етарлича бартараф этилмагани сабабли рўйхатдан ўтказиш рад этилган.

Адвокат Спенсер Уилемс таъкидлаганидек, **АҚШ суд амалиётида тарафларнинг шартномавий эркинлиги тан олинади**, бироқ бу эркинлик истеъмолчи манфаатларига зид бўлмаслиги лозим[5]. Агар битим истеъмолчиларда чалкашликка олиб келса ва жамият манфаатларига зарар етказса, у ҳолда шартнома ёки унинг айрим қисмлари ҳуқуқий кучга эга деб топилмаслиги мумкин.

Шундай қилиб, АҚШ амалиётида товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги шартномалар:

шартномавий эркинлик принципига асосланади;

истеъмолчида чалкашлик юзага келиши эҳтимолига оид объектив баҳолаш мезонларига боғлиқ тарзда юридик кучга эга бўлади;

соғлиқ ва хавфсизлик каби жамият манфаатлари зид бўлган ҳолларда қонуний асос сифатида тан олинмаслиги мумкин.

Европа Иттифоқида товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги келишувнинг ҳуқуқий табиати ва унга нисбатан ёндашувлар, истеъмолчи манфаатлари ва рақобат муҳити билан чамбарчас боғлиқдир. Гарчи мазкур институт ЕИ қонунчилигида мустақил институт сифатида тўғридан-тўғри тартибга солинмаган бўлса-да, унга доир асосий ёндашувлар **2015/2436-**

[4] 2 In re Bay State Brewing Company, Inc. Trademark Trial and Appeal Board. URL: http://brandaide.com/wp-content/ uploads/2016/03/Time-Traveler-TTAB-case.pdf

[5] Spencer T. Wiles. The TTAB Shold Drink a Beer and Relax: Implications for Trademark Consent Agreements in the Craft Brewing Industry After In re Bay State Brewing Company, Inc. – P. 133.

сонли Товар белгилари тўғрисидаги Директива ва Европа суд амалиёти орқали шаклланган.

Директиванинг 4-моддаси 5-қисмига мувофиқ, агар аввалдан рўйхатдан ўтказилган устувор товар белгиси эгаси ўз белгисига адаштириш даражасида ўхшаш белгининг бошқа шахс номига рўйхатдан ўтказилишига ёзма розилик билдирса, аъзо давлатлар бу ҳолатни товар белгисини рўйхатдан ўтказиш учун тўсиқ сифатида кўрмаслиги лозим. **Бу норманинг моҳияти шундаки: розилик орқали истисно ҳол сифатида ўхшаш белгиларнинг ҳуқуқий ҳимоясига йўл қўйилиши мумкин.** Бироқ бу ерда муҳим бир жиҳат бор — **ушбу розилик истеъмолчининг чалкашлигига сабаб бўлиши мумкин бўлган ҳолатларда**, у албатта чегараланиши, ёки мутлақ рад этилиши лозим. Европа суд амалиётида белгилар ўртасидаги ўхшашлик, **визуал, фонетик ва семантик** жиҳатлар, шунингдек, **бозордаги мавқе, обрў, истеъмолчилар сегменти** каби омиллар асосида баҳоланади (масалан, *Canon v. MGM* иши[6]).

Шу боис, амалиётда тарафлар ўртасида тузилаётган биргаликда фойдаланиш шартномаларида белгилар ўртасидаги фарқларни аниқлаш, фойдаланиш ҳудуди ва товар турларини чеклаш, маркетинг ва рекламада адашув эҳтимолини камайтириш каби механизмлар белгилаб қўйилади. **Бу нафақат истеъмолчини адаштиришнинг олдини олишга, балки инсофли рақобат муҳитини сақлашга ҳам хизмат қилади.**

Бундан ташқари, Европа давлатларида бундай келишувлар кўп ҳолларда **монополияга қарши қонунчилик** доирасида ҳам баҳоланади. Агар шартнома муайян бозор сегментида рақобатни чекласа ёки устувор субъектнинг монопол

[6] https://iprgezgini.org/tag/canon-v-mgm-c-3997/

мавқеини мустаҳкамлашга хизмат қилса, у ҳолда бундай келишув жамоат манфаатларига зид деб топилиши мумкин.

Европа Иттифоқи судлари амалиётида ҳам ушбу масалада мураккаб ёндашувлар кузатилади. **АҚШдан фарқли равишда, ЕИ судлари жамият манфаатлари ва истеъмолчиларнинг ҳуқуқий кафолатларини биринчи ўринга қўяди.** Биргаликда фойдаланиш шартномаси истеъмолчида чалкашлик туғдирса, унинг мавжудлигига қарамай, салоҳиятли рўйхатдан ўтказиш ёки ҳуқуқий муҳофаза рад этилиши мумкин.

Хусусан, *In re Bay State Brewing Company* ишида Европа суди “Time Traveler” ва “Time Traveler Blonde” товар белгилари ўртасида чалкашлик хавфи юқори эканлигини инобатга олиб, ҳар икки томон ўзаро шартнома тузган бўлса ҳам, чалкашликни истисно қилувчи қоидалар мавжуд эмаслиги сабабли, кейинги белгини рўйхатдан ўтказишни рад этган.

Шу билан бирга, **Европа қонунчилик ва амалиётида мазкур шартномалар истеъмолчини ҳимоя қилиш, рақобатни таъминлаш ва ҳуқуқий аниқликни кафолатлаш мақсадларида ишлатилади.** Улар орқали ҳуқуқ эгаси ўзига мансуб белгини ҳосила фойдаланувчига чекланган доирада бериш орқали, кейинчалик ҳуқуқбузарлик даъвосини билдириш имкониятини чеклайди. Шу боис, бундай битимлар ҳуқуқий барқарорлик кафолатини ҳам тақдим этади.

Германия ва Европа Иттифоқи амалиётида товар белгисидан биргаликда фойдаланиш шартномаларининг ҳуқуқий моҳияти, уларнинг рақобат қонунчилигига таъсири ва ҳуқуқий баҳоланиш мезонлари ўзаро боғлиқ ҳолда тизимли равишда шаклланган.

Аввало, **Германия товар белгилари қонунчилиги**да бундай битимлар “ҳуқуқни чеклаш шартномаси” (Beschränkungsvertrag) сифатида эътироф этилади. Бу турдаги келишувлар товар белгисининг эгаси томонидан бошқа шахсга нисбатан ўз ҳуқуқини тўлиқ амалга оширишдан маълум маънода воз кечишини билдиради. Қонунчилик нуқтаи назаридан, бундай шартномалар мажбурият ҳуқуқи асосида амалга оширилади ва, аксарият ҳолларда, **фаол ҳуқуқ бериш эмас, балки фаол ҳуқуқни чеклаш хусусиятига эга бўлади**.

Шу билан бирга, **Германия судлари ва Европа Комиссияси** товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги келишувларнинг мазмунини чуқур таҳлил қилади. Агар бундай келишув:

ўхшаш товар белгиларини рўйхатдан ўтказишга қарши чиқмаслик,

ёки уларга эътироз билдирмаслик шартларини ўз ичига олса,

ҳамда бозорни бўлиб олиш, рақобатчиларни бозордан чиқариш каби мақсадларга қаратилган бўлса,

у ҳолда бу битим **инсофсиз рақобатни шакллантирувчи ёки монопол ҳолатни мустаҳкамловчи ҳаракат сифатида** баҳоланиши мумкин.

Бу ҳолатни яққол тасвирловчи мисол сифатида **“Toltecs v. Dorcet” (Segers ва BAT)** иши[7] хизмат қилади. Мазкур ишда шартномада “BAT” компанияси Германия ҳудудида тамаки маҳсулотларини сотиш ҳуқуқини ўзининг фойдасига чеклаб, рақобатчини бозордан чиқаришга ҳаракат қилган. **Европа Комиссияси** ушбу шартноманинг **монополияга қарши қонунчиликни бузганини** қайд этиб,

[7] 82/897/EEC: Commission Decision of 15 December 1982 relating to a proceeding under Article 85 of the EEC Treaty (IV/C-30.128 - Toltecs-Dorcet). URL: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A31982 D0897

уни ҳимоя қилинадиган ҳуқуқий восита эмас, балки рақобатни сунъий чеклашга қаратилган механизм сифатида баҳолаган[8].

“BAT”нинг бу қарорга қарши Европанинг суд органларига мурожаатида эса **Европа Иттифоқи суди** битимнинг моҳияти ва мақсадларини баҳолайди. Суд, агар шартномада:

товар белгиларининг адаштириш эҳтимоли бартараф этилган бўлса,

ҳамкорлик ҳуқуқий аниқлик ва келишмовчиликларни олдини олишга хизмат қилса,

ва шартнома бозор рақобатига чеклов қўймаса,

у ҳолда **шартнома ўз-ўзидан ҳақиқий ва амалга оширилиши мумкин** деган хулосага келади.

Бу ҳолат Германияда ва ЕИда амал қилаётган тамойилни аниқ кўрсатади: **истеъмолчининг адашишини бартараф этиш, рақобатни чекламаслик ва ҳуқуқни мақсадга мувофиқ тартибга солиш** – товар белгисидан биргаликда фойдаланиш тўғрисидаги шартномаларнинг асосий баҳолаш мезони ҳисобланади.

Ўзбекистон қонунчилигида ушбу мезонлар ҳали тўлиқ шаклланмаган бўлсада, мазкур халқаро амалиётлар орқали **Ўзбекистонда ҳам фуқаролик муомаласида бундай шартномаларнинг ҳуқуқий табиати, мақоми ва таъсир доираси аниқ тартибга солиниши зарур**. Бу истеъмолчилар ҳуқуқлари, бозор барқарорлиги ва рақобатнинг соғлом муҳитини таъминлашга хизмат қилади.

Буюк Британияда товар белгисидан биргаликда фойдаланиш масалалари 1994 йилда қабул қилинган “Товар белгилари тўғрисида”ги Қонун (Trade Marks Act 1994) билан тартибга солинади. Ушбу қонуннинг 23-моддаси бир хил ёки ўхшаш товар белгисига нисбатан икки ва ундан ортиқ шахсларнинг ҳуқуқий

[8] https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:61983CJ0035&from=EN

иштирокига оид ҳуқуқий режимни белгилаб беради. Аввало, модданинг 1-қисмига мувофиқ, агар товар белгиси икки ёки ундан ортиқ шахсга умумий тарзда тегишли бўлса, ҳар бир ҳуқуқ эгаси ўзаро тузилган шартнома асосида ушбу белгидан мустақил равишда фойдаланиш, уни иқтисодий фаолиятда қўллаш ва даромад олиш ҳуқуқига эга бўлади. Бу қоида мулк ҳуқуқининг мустақиллигини таъминлашга ва шерикларнинг хўжалик эркинлигини кафолатлашга қаратилгандир. Модданинг 3-қисмида эса, ҳар бир шерик ўз улуши доирасида бошқа шериклардан олдиндан розилик олмасдан товар белгисидан фойдаланиши мумкинлиги белгиланган. Бу ҳолат амалда биргаликда мулкка эгалик қилиш институтига хос бўлган “мустақил фойдаланиш” ҳуқуқининг намоён бўлиши ҳисобланади.

Шу билан бирга, 4-қисм (a)-(b) бандларида ушбу мустақиллик ҳуқуқининг чекланиши назарда тутилган. Яъни:

Ҳар бир шерик, бошқа шерикларнинг ёзма розилигисиз товар белгиси бўйича лицензия бериш;

Ўз улушини ёки унга доир ҳуқуқларни учинчи шахсга ўтказиш (сотиш, ҳадя қилиш ва ҳоказо) ҳуқуқига эга эмас.

Агар бу талаблар бузилса, бошқа шериклар ушбу ҳуқуқбузарликка қарши суд тартибида даъво киритиш ҳуқуқига эга бўладилар. Бу норма, мулкдорлар ўртасида ўзаро ишонч ва ҳуқуқий барқарорликни таъминлашга хизмат қилади.

Модданинг 5 ва 6-қисмларида эса судда даъво ишлари кўрилишида шериклар иштирокини таъминлашга оид тартиб ва чекловлар белгиланган бўлиб, бунда:

Ҳар қандай суд ишида барча шериклар томон сифатида иштирок эттирилиши шартлиги;

Суд қарорлари барча ҳуқуқ эгаларининг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда чиқарилиши лозимлиги қайд этилган.

Умуман олганда, Trade Marks Act 1994'нинг 23-моддаси товар белгисининг бир неча шахс томонидан биргаликда эгалик қилиниши шароитида ҳуқуқлар ва мажбуриятларни аниқ ва мувозанатли тарзда тартибга солади. Қонун хусусий мулкка дахлдор муносабатларда шерикларнинг ҳуқуқий манфаатларини ўзаро муҳофаза қилишни мақсад қилади. Бу эса биргаликда мулкчиликнинг самарали фойдаланиш механизмларидан бири ҳисобланади.

Буюк Британияда товар белгисидан биргаликда фойдаланиш шартлари амалиётда суд томонидан турлича ҳолатларда таҳлил қилинади. Бунинг яққол мисоли сифатида “Apple Corps Ltd. v. Apple Computer Inc.” иши[9] келтирилади. Мазкур низо товар белгисидан фойдаланиш ҳуқуқларининг соҳавий чегараларини белгилаш, шартнома асосида белгиланган мажбуриятларга риоя этилишини таъминлаш масалалари билан боғлиқдир.

1981 йилда томонлар ўртасида тузилган шартномага кўра, “Apple Corps” компанияси “Apple” товар белгисидан фақат мусиқий фаолият ва мусиқий маҳсулотлар ишлаб чиқариш соҳасида фойдаланиш ҳуқуқига эга бўлган, “Apple Computer” эса ушбу белгидан фақат электрон қурилмалар, компьютер технологиялари ва ахборот хизматлари соҳасида фойдаланиши мумкин эди. Мазкур шартнома икки компания фаолиятининг турлича бозор сегментларига тегишлилигини ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлаган эди.

Бироқ 2000-йиллар бошида “Apple Computer” компанияси “iPod” номли рақамли мусиқа плеери ҳамда “iTunes” рақамли мусиқа тарқатиш платформасини

[9] Apple Corps LTD v. Apple Computer Inc. [2004] EWHC 768 (Ch). URL: https://www.casemine.com/judgement/ uk/5a8ff7d860d03e7f57eb2726

ишлаб чиқара бошлади. Бу фаолият “Apple Corps” томонидан шартнома шартларини бузиш сифатида баҳоланди, чунки мазкур хизматлар ва қурилмалар мусиқий бозорга дахлдор бўлиб, “Apple Corps”нинг ҳимоя қилинган соҳага оид ҳуқуқларига тааллуқли деб ҳисобланди.

Суд мазкур ишни кўриб чиқар экан, 1981 йилда тузилган шартнома нормаларига таянди ва томонлар ўртасида белгиланган соҳавий чегараларга риоя этилишининг муҳимлигини таъкидлади. Суднинг фикрича, ҳар икки тараф ўз фаолияти доирасида қолиши лозим ва уларнинг ҳаракатлари иккинчи томоннинг соҳасига бевосита аралашмаслиги керак.

Шу билан бирга, суд “Apple Computer” томонидан рақамли мусиқа тарқатиш хизмати яратилган бўлса-да, ушбу компания бевосита мусиқий контентни ишлаб чиқармаганини ва асосий фаолияти аппарат ва дастурий таъминот соҳаси билан боғлиқлигини инобатга олди. Шу сабабли, суд “Apple Computer” томонидан амалга оширилган фаолият шартнома шартларининг аниқ бузилиши деб топилмаслиги ҳақида хулоса берди.

Суд икки томонни шартнома шартларига қатъий риоя қилишга чақирар экан, келгусида ҳар қандай фаолиятнинг иккинчи томон бозор сегментига дахлдор бўлмаслиги кераклигини алоҳида таъкидлади. Мазкур қарорда суд товар белгисидан фойдаланишда соҳалар ўртасидаги ҳуқуқий чегараларни ҳимоя қилиш ва шартнома асосида белгиланган фаолият соҳаларини бузмаслик принципини илгари сурди[10].

Мазкур ишдан келиб чиқадиган хулоса шундан иборатки, Буюк Британия амалиёти товар белгисидан биргаликда фойдаланиш шартномасини юридик

[10] Hormby, Thomas (10 January 2007). "What's in a Name? Apple Corp vs. Apple Computer". Low End Mac. Archived from the original on 3 February 2007. Retrieved 1 March 2007. "History of Apple v Apple". BBC. 8 May 2006. Archived from the original on 7 February 2007. Retrieved 3 February 2007.

жиҳатдан амалга оширишда аниқ ва муфассал шартларни белгиланишини талаб этади. Бунда товар турлари, фаолият соҳалари, технологиялар ва бозордаги мавқеи каби омиллар ҳисобга олинади. Агар шартномада аниқ чекловлар белгиланмаган бўлса ва бу ҳолат истеъмолчиларни адаштиришга ёки бозорда инсофсиз рақобат муҳитини юзага келтиришга олиб келса, суд бундай битимни бекор қилиши ёки қайта кўриб чиқиш ҳақида қарор қабул қилиши мумкин.

Шунингдек, Буюк Британия амалиётида товар белгисидан биргаликда фойдаланиш муносабатлари қонуний, аммо чегараланган ва шаффоф шартларда амалга оширилиши лозимлиги, ҳар бир ҳуқуқ эгаси бошқа иштирокчиларнинг манфаатларини ҳам ҳисобга олиши зарурлиги алоҳида таъкидланган. Бу эса ҳуқуқий барқарорликни таъминлаш ва бозорда истеъмолчилар манфаатларини ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан муҳим аҳамиятга эгадир.

Хитой Халқ Республикасида товар белгисидан биргаликда фойдаланишга оид махсус норматив-ҳуқуқий ҳужжат мавжуд эмас. Шу билан бирга, амалдаги қонунчилик бундай келишувларни қонуний деб тан олмайди, деб қатъий баёнот ҳам бермайди. Яъни, бу турдаги шартномаларнинг ҳуқуқий моҳияти Хитойда тўлиқ ва аниқ тартибга солинмаган бўлса-да, улар шартнома эркинлиги принципи асосида тузилиши мумкин.

Хитой Товар белгилари тўғрисидаги Қонунининг 4-моддасига мувофиқ, товар белгисининг маълум турдаги товарларга нисбатан фойдаланиш ҳуқуқи фақат битта ҳуқуқ субъектнинг номига рўйхатдан ўтказилиши мумкин[11]. Шунингдек, бир хил ёки адаштириш даражасида ўхшаш товар белгилари бир вақтнинг ўзида рўйхатдан ўтказилишига йўл қўйилмайди. Бу норма

[11] Shambaugh D. US-China rivalry in Southeast Asia: power shift or competitive coexistence? //International Security. – 2018. – Т. 42. – № 4. – P. 85-127.

истеъмолчиларни чалкашликдан муҳофаза қилиш ва бозорда алдамчи аломатларнинг олдини олишга қаратилган.

Шу билан бирга, мазкур модда товар белгисининг икки ва ундан ортиқ шахслар томонидан шартнома асосида биргаликда фойдаланишини аниқ тақиқламайди. Амалиётда бундай битимлар хусусий мулк ҳуқуқи ва шартнома эркинлиги принциплари доирасида амалга оширилиши мумкин бўлиб, уларнинг ҳуқуқий мақомига нисбатан ҳуқуқшуносликда бир неча қарама-қарши ёндашувлар мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Spencer T. Wiles. The TTAB Shold Drink a Beer and Relax: Implications for Trademark Consent Agreements in the Craft Brewing Industry After In re Bay State Brewing Company, Inc. – P. 130
2. Times Mirror Magazines Inc. v. Fiels & Stream Licenses Co. 103 F. Supp. 2d 711 (S.D.N.Y. 2000), aff’d, 294 F.3d 383 (2d. Cir. 2002). URL: https://caselaw.findlaw.com/us-2nd-circuit/1372486.html
3. https://law.justia.com/cases/federal/district-courts/FSupp/948/1050/2098685/
4. 2 In re Bay State Brewing Company, Inc. Trademark Trial and Appeal Board. URL: http://brandaide.com/wp-content/ uploads/2016/03/Time-Traveler-TTAB-case.pdf
5. Spencer T. Wiles. The TTAB Shold Drink a Beer and Relax: Implications for Trademark Consent Agreements in the Craft Brewing Industry After In re Bay State Brewing Company, Inc. – P. 133.
6. https://iprgezgini.org/tag/canon-v-mgm-c-3997/

7. 82/897/EEC: Commission Decision of 15 December 1982 relating to a proceeding under Article 85 of the EEC Treaty (IV/C-30.128 - Toltecs-Dorcet). URL: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A

8. 31982 D0897

9. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:61983CJ0035&from=EN

10. Apple Corps LTD v. Apple Computer Inc. [2004] EWHC 768 (Ch). URL: https://www.casemine.com/judgement/ uk/5a8ff7d860d03e7f57eb2726

11. Hormby, Thomas (10 January 2007). "What's in a Name? Apple Corp vs. Apple Computer". Low End Mac. Archived from the original on 3 February 2007. Retrieved 1 March 2007. "History of Apple v Apple". BBC. 8 May 2006. Archived from the original on 7 February 2007. Retrieved 3 February 2007.

12. Shambaugh D. US-China rivalry in Southeast Asia: power shift or competitive coexistence? //International Security. – 2018. – T. 42. – № 4. – P. 85-127.

WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP UNDER LABOUR MARKET TRANSFORMATION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF CHINA AND UZBEKISTAN

Khasanova Shakhzoda Sarvar kizi

an Independent Researcher at the Department of «Labour Economics and Strategic Management» Tashkent Branch of the Plekhanov Russian University of Economics

sshakhzoda@yahoo.com **ORCID: 0009-0000-4452-0073**

Annotation

O‘qish darslarida **rolli o‘yinlar** ham keng qo‘llaniladi. Matn qahramonlari obraziga kirish orqali o‘quvchilar ularning hissiyotlarini chuqurroq anglaydi, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydi va voqealarni real hayot bilan bog‘lay oladi. Rolli o‘yinlar bolalarda erkin muloqot qilish, jamoada ishlash va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yana bir samarali metod – **muammoli vaziyat yaratish**. O‘qituvchi matndagi voqea yoki qahramon harakatiga oid muammoli savollar beradi. Masalan: *"Agar sen*

bosh qahramon o‘rnida bo‘lganingda qanday yo‘l tutarding?" yoki *"Hikoyaning yakuni boshqacha bo‘lishi mumkinmidi?"* kabi savollar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z qarashlarini asoslashni va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadi.

Shuningdek, matn asosida rasm chizish, klaster tuzish, aqliy hujum, konseptual xaritalar yaratish, kichik sahna ko‘rinishlarini tayyorlash kabi faoliyatlar ham matnni o‘zlashtirish jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi. Bu metodlar turli xil o‘quv uslublariga ega bolalarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi va ularning bilimini amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi.

Ijodiy topshiriqlarning yana bir afzalligi shundaki, ular o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash, muloqot qilish va hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Guruhlarda bajariladigan ijodiy vazifalar o‘quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi, fikr almashish madaniyatini shakllantiradi hamda ta'lim jarayonini samaraliroq tashkil etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘qish darslarida ijodiy topshiriqlardan maqsadli foydalanish matnni puxta o‘zlashtirish, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darslarni rejalashtirishda ijodiy metodlarga keng o‘rin berishlari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat ta’lim standarti va umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturiga oid me’yoriy hujjatlari. – Toshkent, 2022.

3. Jumayev M.E., Tadjiyeva G. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021.

4. G‘afforova T., Nurullayeva Sh. O‘qish metodikasi (boshlang‘ich ta’lim uchun). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Ro‘ziyeva D., Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.

6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.

8. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2022.

9. PIRLS 2021 Assessment Framework. Progress in International Reading Literacy Study. Amsterdam: IEA, 2021.

10. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023.

11. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

12. Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.

13. Bloom B.S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I: Cognitive Domain. – New York: Longmans, Green, 1956.

14. Tomlinson C.A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. – Alexandria, VA: ASCD, 2017.

15. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO, 2021.

Methods of expressive reading and text analysis in reading lessons

Umida Zayniddin qizi Yusupova
Student, Andijan State Pedagogical Institute

Abstract

This article examines the pedagogical significance of expressive reading and text analysis methods in primary school reading lessons. It discusses effective teaching strategies that improve students’ reading literacy, comprehension, pronunciation, intonation, and oral communication skills. The paper also highlights the role of text analysis, question-and-answer activities, role reading, and interactive methods in enhancing the effectiveness of reading instruction.

Keywords

expressive reading, text analysis, reading lessons, reading literacy, intonation, speech culture, interactive methods, primary education.

O‘qish darslarida matnni ifodali o‘qish va tahlil qilish usullari

Andijon davlat pedagogika inisituti talbasi
Yusupova Umida Zayniddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matnni ifodali o‘qish va tahlil qilish usullarining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Ifodali o‘qish orqali o‘quvchilarning matn mazmunini chuqur anglash, nutq madaniyati, to‘g‘ri talaffuz, intonatsiya va o‘qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, matnni mazmuniy tahlil qilish, savol-javob, rolli o‘qish va interfaol metodlardan foydalanishning ta’lim samaradorligiga ta’siri asoslab berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое значение выразительного чтения и методов анализа текста на уроках чтения в начальных классах. Проанализированы эффективные способы формирования читательской

грамотности, понимания содержания текста, правильного произношения, интонационной выразительности и речевой культуры учащихся. Особое внимание уделено анализу текста, вопросам и ответам, чтению по ролям и использованию интерактивных методов обучения.

Kalit so‘zlar: ifodali o‘qish, matn tahlili, o‘qish darsi, o‘qish savodxonligi, intonatsiya, nutq madaniyati, interfaol metodlar, boshlang‘ich ta’lim.

Ключевые слова: выразительное чтение, анализ текста, урок чтения, читательская грамотность, интонация, культура речи, интерактивные методы, начальное образование.

Kirish. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini, nutq madaniyatini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu darslarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga matnni ravon, ongli va ifodali o‘qishni o‘rgatish hamda uning mazmunini chuqur tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ifodali o‘qish orqali o‘quvchilar matndagi voqea va hodisalarni his etadi, qahramonlarning ruhiy holatini anglaydi, muallifning asosiy g‘oyasini to‘g‘ri tushunishga erishadi. Shu bilan birga, matnni tahlil qilish jarayoni o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, kuzatuvchanligini va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi faqat matnni o‘qitish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etishi, turli metod va interfaol usullardan foydalanishi zarur. Ifodali o‘qish va matnni tahlil qilish usullarining uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi hamda ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ifodali o‘qish – bu matnni to‘g‘ri, ravon va mazmuniga mos ohangda o‘qish jarayonidir. Bunda o‘quvchi nafaqat so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiladi, balki pauza, urg‘u, intonatsiya va ovoz balandligidan o‘rinli foydalanadi. Ifodali o‘qish matn mazmunini

chuqurroq anglashga yordam beradi hamda tinglovchiga matndagi hissiyot va g‘oyani aniq yetkazadi. Boshlang‘ich sinflarda ifodali o‘qishni shakllantirish uchun avvalo o‘qituvchi matnni namuna sifatida ifodali o‘qib berishi lozim. O‘quvchilar o‘qituvchining talaffuzi, ohangi va pauzalariga e’tibor qaratib, uni takrorlaydilar. Bunday mashqlar o‘quvchilarning to‘g‘ri o‘qish malakasini rivojlantirish bilan birga, nutq madaniyatini ham shakllantiradi.

Ifodali o‘qishni rivojlantirishda **rollarga bo‘lib o‘qish** metodi alohida ahamiyatga ega. Dialoglarga boy matnlarda o‘quvchilar qahramonlar rolini ijro etib o‘qiydilar. Bu usul qahramonlarning xarakterini chuqurroq tushunishga, ularning his-tuyg‘ularini ifodalashga va matn mazmunini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda erkin muloqot qilish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Matnni tahlil qilish o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi muhim bosqich hisoblanadi. Tahlil jarayonida o‘quvchilar matnning mavzusi va asosiy g‘oyasini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydilar hamda voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini tushuntiradilar. O‘qituvchi “Matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?”, “Qahramon nima uchun shunday yo‘l tutdi?”, “Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday qaror qabul qilardingiz?” kabi savollar orqali o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga undaydi.

Matn ustida ishlashda **savol-javob, aqliy hujum, klaster, Venn diagrammasi, konseptual xarita** kabi interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu usullar yordamida o‘quvchilar matndagi asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajratishni, ma’lumotlarni taqqoslashni va umumlashtirishni o‘rganadilar. Natijada matnni tushunish darajasi oshadi va bilimlar mustahkamlanadi. Matnni ifodali o‘qish bilan tahlil qilishni uyg‘unlashtirish uchun ijodiy topshiriqlardan foydalanish ham muhimdir. O‘quvchilarga matnga boshqa yakun yozish, qahramon nomidan voqealarni hikoya qilish, matn asosida

dialog tuzish yoki sahna ko‘rinishini tayyorlash vazifalari berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning tasavvuri, nutqi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ifodali o‘qishni baholashda faqat o‘qish tezligiga emas, balki talaffuzning aniqligi, intonatsiyaning to‘g‘riligi, pauzalarga rioya qilinishi va matn mazmunining ifodalanishiga ham e’tibor qaratish zarur. Matnni tahlil qilishni baholashda esa o‘quvchining matn mazmunini qay darajada tushungani, asosiy g‘oyani aniqlay olishi, savollarga mantiqiy javob berishi va mustaqil xulosa chiqarishi muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ifodali o‘qishni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Audio va videoyozuvlar, elektron darsliklar, multimedia taqdimotlari hamda interaktiv platformalar yordamida o‘quvchilar professional ifodali o‘qish namunalarini tinglaydi, o‘z o‘qishini yozib tahlil qiladi va xatolarini bartaraf etadi. Bu esa o‘qish jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Shunday qilib, o‘qish darslarida matnni ifodali o‘qish va tahlil qilish usullaridan kompleks foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda matnni chuqur anglash kompetensiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodlarning muntazam qo‘llanilishi ta’lim sifatini oshirish va kitobxon avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2022.

4. G‘afforova T., Nurullayeva Sh. O‘qish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2022.

6. Safarova R., Hamidov H. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

7. Ro‘ziyeva D., Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.

8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.

9. Matchonov S. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

10. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023.

11. PIRLS International Study Center. PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Amsterdam: IEA, 2021.

12. Rasinski T.V. The Fluent Reader: Oral and Silent Reading Strategies for Building Fluency, Word Recognition, and Comprehension. 2nd ed. – New York: Scholastic, 2010.

13. Allington R.L. What Really Matters for Struggling Readers: Designing Research-Based Programs. 3rd ed. – Boston: Pearson, 2012.

14. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

15. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023.

HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL FEATURES OF THE FORMATION OF THE IDEA OF HUMAN DIGNITY IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHICAL THOUGHT

Jumayev Nuriddin Sodiqovich

Teacher, Ro‘zi Choriyev Specialized Boarding School of Arts, Termez

Abstract

This article presents a comparative analysis of the historical formation and evolution of the idea of human dignity in Eastern and Western philosophical thought. It examines the religious, ethical, anthropological, and axiological foundations of human dignity and evaluates the contributions of various philosophical schools to the development of this concept. The study identifies both the common and distinctive features that shape the contemporary philosophical understanding of human dignity.

Keywords

human dignity, Eastern philosophy, Western philosophy, philosophical anthropology, axiology, humanism, historical evolution, value, freedom, individual.

SHARQ VA G‘ARB FALSAFIY TAFAKKURIDA INSON QADRI G‘OYASINING TARIXIY-FALSAFIY SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Jumayev Nuriddin Sodiqovich

Termiz Ro’zi Choriyev nomida ixtisoslashgan san’at makrab-internati o’qituvchisi

e-mail: uzbekxan1986@gmail.com https://orcid.org/0009-0000-1763-7735

Annotatsiya: mazkur maqolada Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurida inson qadri g‘oyasining tarixiy shakllanishi hamda evolyutsiyasi qiyosiy tahlil qilinadi. Inson qadrining diniy, axloqiy, antropologik va aksiologik asoslari yoritilib, turli falsafiy maktablarning mazkur tushunchaga qo‘shgan hissasi baholanadi. Tadqiqot natijasida inson qadri g‘oyasining zamonaviy falsafiy mazmunini belgilovchi umumiy va o‘ziga

xos xususiyatlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: inson qadri, Sharq falsafasi, G‘arb falsafasi, falsafiy antropologiya, aksiologiya, gumanizm, tarixiy evolyutsiya, qadriyat, erkinlik, shaxs.

Kirish

Inson qadri tushunchasi falsafiy tafakkur tarixida eng muhim antropologik va aksiologik kategoriyalardan biri sifatida shakllanib, insonning jamiyat va borliqdagi o‘rnini belgilashga xizmat qiluvchi fundamental nazariy asoslardan hisoblanadi. Mazkur tushunchaning mazmuni turli tarixiy davrlar va falsafiy maktablarda o‘ziga xos tarzda talqin etilgan bo‘lsa-da, uning markazida doimo insonning mohiyati, erkinligi, ma’naviy kamoloti hamda jamiyatdagi qadr-qimmati masalasi turgan. Sharq falsafasida inson qadri, asosan, axloqiy komillik, adolat, ma’naviy poklik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan bog‘liq holda rivojlangan bo‘lsa, G‘arb falsafasida shaxs erkinligi, tabiiy huquqlar, individual avtonomiya va inson huquqlari g‘oyalari ustuvor ahamiyat kasb etgan. Mazkur yondashuvlar o‘zaro farqlanishiga qaramay, insonni oliy qadriyat sifatida e’tirof etish nuqtasida mushtaraklik kasb etadi. Globallashuv, madaniyatlararo muloqot va zamonaviy sivilizatsion jarayonlar sharoitida inson qadri fenomenini Sharq va G‘arb falsafiy an’analari uyg‘unligida o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, inson qadri g‘oyasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasini qiyosiy tahlil qilish zamonaviy antropologik va aksiologik qarashlarning nazariy asoslarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Asosiy qism

Inson qadri g‘oyasi jahon falsafiy tafakkurining eng qadimiy va ayni paytda zamonaviy ilm-fan uchun dolzarb bo‘lib qolayotgan konseptual masalalaridan biridir. Mazkur tushuncha insonning biologik mavjudligi yoki ijtimoiy maqomini emas, balki uning ontologik mohiyati, ma'naviy salohiyati va jamiyatdagi daxlsiz o‘rnini ifodalovchi

universal falsafiy kategoriya sifatida shakllangan. Bugungi kunda inson qadri inson huquqlari, erkinlik, demokratiya va fuqarolik jamiyati kabi tushunchalarning metodologik negizi sifatida talqin etilmoqda. Biroq ushbu tushunchaning zamonaviy mazmuni uzoq davom etgan tarixiy-falsafiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, Sharq va G‘arb tafakkuri rivojining turli bosqichlarida turlicha nazariy asoslangan [1; 2; 3].

Antonio Pele inson qadri konsepsiyasining tarixiy rivojlanishini tahlil qilar ekan, uning shakllanishi antik davr falsafasi, stoitsizm, xristian falsafasi, Uyg‘onish davri gumanizmi, tabiiy huquq maktabi va nemis klassik falsafasi orqali izchil takomillashganini ko‘rsatadi [1]. Muallifning fikricha, zamonaviy **human dignity** konsepsiyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, inson qadri shaxsning ijtimoiy foydasi yoki siyosiy mavqeidan emas, balki uning inson sifatidagi ajralmas maqomidan kelib chiqadi. Ushbu yondashuv inson qadrini davlat tomonidan beriladigan imtiyoz emas, balki har bir insonning tabiiy va ajralmas huquqi sifatida talqin etadi. Mazkur nazariya keyinchalik inson huquqlari konsepsiyasining falsafiy negizini shakllantirdi [1].

Sharq falsafasida esa inson qadri masalasi ko‘proq komil inson g‘oyasi, axloqiy poklik, adolat va ma'naviy kamolot bilan bog‘liq holda rivojlangan. Sharq mutafakkirlari insonning qadrini uning moddiy mavqei bilan emas, balki ilmga intilishi, axloqiy fazilatlari, jamiyat oldidagi mas'uliyati va ruhiy yetukligi bilan baholaganlar. Shu bois Sharq tafakkurida inson qadri individual erkinlikdan ko‘ra ko‘proq ma'naviy komillik va ijtimoiy mas'uliyat mezonlari orqali izohlanadi. Mazkur yondashuv G‘arb falsafasidagi huquqiy-antropologik qarashlardan farq qilsa-da, insonni oliy qadriyat sifatida e'tirof etishi bilan ular o‘rtasida muhim mushtaraklik mavjud [3; 10].

G‘arb falsafasining klassik bosqichida inson qadri erkinlik va huquq kategoriyalari bilan yanada chuqur bog‘landi. G.V.F. Hegel shaxsning huquqiy maqomini erkin irodaning obyektiv ifodasi sifatida talqin qilib, insonning qadr-qimmatini uning erkin subyekt

ekanligi bilan izohlaydi [2]. Hegel nazariyasida davlat shaxsni cheklovchi institut emas, aksincha, uning erkinligini ro‘yobga chiqaruvchi ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. Shu sababli inson qadri huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati va erkinlik kategoriyalarining dialektik birligida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv zamonaviy konstitutsiyaviy davlat nazariyalarining shakllanishida muhim metodologik ahamiyat kasb etdi [2].

XX asr falsafiy antropologiyasi inson qadri tushunchasiga yangi mazmun olib kirdi. Maks Sheler insonni biologik mavjudot emas, balki qadriyatlarni anglash va yaratishga qodir ma'naviy mavjudot sifatida tavsiflaydi [4]. Uning fikricha, insonning ustunligi aqliy salohiyatida emas, balki qadriyatlarni idrok etish va ularga muvofiq yashash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Viktor Frankl esa inson qadrining asosini hayot mazmunini anglash va erkin tanlov qilish imkoniyatida ko‘radi. Uning nazariyasiga ko‘ra, eng og‘ir sharoitlarda ham inson o‘z qadr-qimmatini saqlab qolishi mumkin, chunki insonning haqiqiy erkinligi tashqi sharoitlarda emas, balki ichki ma'naviy tanlovida namoyon bo‘ladi [4]. Erich Fromm esa inson qadrini “ega bo‘lish” tamoyili emas, “bo‘lish” tamoyili orqali izohlab, shaxsning ma'naviy rivojlanishi va axloqiy mas'uliyatini inson mavjudligining asosiy mezoni sifatida baholaydi [6].

G‘arb falsafasida inson qadri muammosi faqat individual erkinlik yoki huquqiy maqom bilan cheklanmay, insonning mavjudlik mohiyatini anglash doirasida ham chuqur tahlil qilingan. Martin Xaydegger insonni borliqni anglashga qodir yagona mavjudot sifatida tavsiflab, uning asl mohiyati tashqi ijtimoiy maqom yoki utilitar qiymatda emas, balki autentik mavjudlikni anglash va o‘z hayotiga mas'uliyat bilan munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘lishini ta'kidlaydi [7].Bu yondashuv inson qadri tushunchasining ontologik asoslarini ochib beradi. Insonning qadri uning jamiyatga keltiradigan foydasi yoki egallab turgan mavqei bilan emas, balki o‘z mavjudligini ongli ravishda anglay

olishi va ma'naviy tanlov qilish salohiyati bilan belgilanadi. Aynan shu jihat zamonaviy falsafiy antropologiyaning muhim metodologik xulosalaridan biri hisoblanadi.

Ernst Kassirer insonni “ramziy mavjudot” (animal symbolicum) sifatida tavsiflab, insonning qadr-qimmatini uning biologik tabiati emas, balki madaniyat yaratish qobiliyati orqali asoslaydi [8]. Olimning fikricha, til, din, fan, san'at va mif insonning ramziy faoliyat mahsuli bo‘lib, aynan ular insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi. Mazkur yondashuv inson qadri tushunchasiga yangi madaniy-antropologik mazmun olib kiradi. Inson faqat tabiiy mavjudot emas, balki tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi faol subyektdir. Demak, inson qadri uning biologik mavjudligida emas, balki madaniyatni yaratish va rivojlantirish salohiyatida ham namoyon bo‘ladi [8].

Gerbert Markuze texnokratik jamiyat sharoitida insonning ma'naviy erkinligi tobora cheklanib borayotganini ta'kidlab, “bir o‘lchovli inson” konsepsiyasini ilgari suradi [9]. Uning fikricha, iste'molchilik madaniyati va texnologik taraqqiyot shaxsni erkin fikrlash imkoniyatidan uzoqlashtirib, uni ishlab chiqarish va iste'mol tizimining passiv unsuriga aylantiradi. Bunday vaziyatda inson qadri shaxsning ichki erkinligi, tanqidiy tafakkuri va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini saqlab qolish bilan chambarchas bog‘liqdir. Markuzening ushbu qarashlari bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki zamonaviy axborot jamiyatida insonning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va intellektual mustaqilligini ta'minlash inson qadri tamoyilining muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda [9].

Sharq va G‘arb falsafiy an'analarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular inson qadri tushunchasiga turli metodologik nuqtayi nazardan yondashgan bo‘lsalar-da, yakuniy maqsad jihatidan mushtarakdir. Sharq falsafasi insonning ichki komilligi, axloqiy pokligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini ustuvor qo‘ysa, G‘arb falsafasi shaxs erkinligi, huquqiy daxlsizlik va individual avtonomiyani asosiy mezon sifatida

rivojlantirdi. Biroq ushbu ikki yo‘nalish bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, zamonaviy inson qadri konsepsiyasi aynan ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan integral falsafiy model sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur modelda insonning huquqiy maqomi, ma'naviy kamoloti, ijodiy salohiyati va ijtimoiy mas'uliyati o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Bizningcha, inson qadri g‘oyasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi inson haqidagi qarashlarning oddiy rivojlanishi emas, balki sivilizatsion tafakkurning insonni oliy qadriyat sifatida anglash sari bosib o‘tgan murakkab yo‘lini aks ettiradi. Agar antik davrda insonning qadri uning fazilatlari yoki fuqarolik maqomi bilan izohlangan bo‘lsa, zamonaviy falsafada insonning o‘zi barcha qadriyatlarning mezoni sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli bugungi demokratik taraqqiyot sharoitida inson qadri nafaqat axloqiy yoki huquqiy kategoriya, balki davlat siyosati, fuqarolik jamiyati va barqaror rivojlanishning metodologik tamoyiliga aylanmoqda. Mazkur holat Sharq va G‘arb falsafiy merosining eng muhim umumiy xulosasi sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson qadri g‘oyasi Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurida turli nazariy asoslarda shakllangan bo‘lsa-da, uning markazida insonni oliy qadriyat sifatida e'tirof etish tamoyili mujassamdir. Sharq falsafasi inson qadrini ma'naviy kamolot, axloqiy yetuklik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog‘lagan bo‘lsa, G‘arb falsafasi shaxs erkinligi, huquqiy daxlsizlik va individual avtonomiya orqali asoslagan. Mazkur yondashuvlarning evolyutsiyasi natijasida inson qadri zamonaviy falsafada huquqiy, antropologik va aksiologik mazmunni o‘zida mujassamlashtirgan universal kategoriya sifatida qaror topgan. Tahlillar asosida inson qadri tushunchasi shaxsning biologik yoki ijtimoiy holatini emas, balki uning ajralmas huquqlari, ma'naviy salohiyati, erkin tanlovi va madaniyat yaratuvchi subyekt sifatidagi mohiyatini ifodalovchi integrativ falsafiy kategoriya ekanligi asoslandi. Shu nuqtayi nazardan,

Sharq va G‘arb falsafiy merosining qiyosiy tahlili inson qadri tamoyilining zamonaviy demokratik taraqqiyot, inson huquqlarini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivoj-lantirishning metodologik negizi sifatidagi ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan manbalar ro’yxati

1. Pele A. Human Dignity in Philosophy and History: PhD Dissertation. – Madrid: Universidad Carlos III de Madrid, 2010. – 1189 p.

2. Гегель Г. В. Философия права. – Москва: Мысль, 1990. – 524 с.

3. Проблема человека в западной философии: Переводы / Сост. и послесл. П. С. Гуревича; Общ. ред. Ю. Н. Попова. – Москва: Прогресс, 1988. – 552 с.

4. Проблема человека в западной философии: Переводы/Сост. и послесл. П. С. Гуревича; Общ. ред. Ю.Н. Попова. – М.: Прогресс, 1988—552 с.

5. Бердяев Н. А. О назначении человека. – Москва: Республика, 1993. – 382 с.

6. Фромм Э. Человек для себя. – Москва: АСТ, 2026. – 320с.

7. Хайдеггер М. Бытие и время / М. Хайдеггер; Пер. с нем. В.В. Бибихина. — Харьков: «Фолио», 2003. — 503 с.

8. Кассирер Э. Опыт о человеке: Введение в философию человеческой культуры (Перевод Муравьев А.Н.). // Проблема человека в западной философии. / Переводы / Сост. и послесл. П.С. Гуревича; Общ. ред. Ю.Н. Попова. Москва: Издательство «Прогресс», 1988. С.3-30.

9. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре. – Москва: Республика, – С. 44-128.

10. Назаров Қ., Файзихўжаева Д., Нурматова М., Шер А., Абдуллаева Н., Қалқонов Э., Қандов Б. Фалсафа асослари: дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2018. – 380 б.

STATUTORY FORMS OF ALTERNATIVE CARE FOR CHILDREN IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bekbutayeva Lobar Shovkat qizi

Independent Researcher, National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

Abstract

This paper examines the system of statutory forms of alternative care for children deprived of parental care, as established by the legislation of the Republic of Uzbekistan as of 2025. Based on an analysis of the Family Code, the Law on Guardianship and Custody (ZRU-364), the Law on the Protection of Children from All Forms of Violence (ZRU-996), Presidential Decree UP-256, and Cabinet of Ministers Resolution No. 893 of December 27, 2024, the paper describes the substance of each form of care placement: adoption, guardianship and custodianship, foster family, patronage, family-type children's home, and specialized residential care institutions. The hierarchy of placement forms, with priority given to family-based care, is outlined, along with the relationship between legislative and sub-legislative levels of regulation. The paper notes that the reform of 2024–2025 significantly updated the sub-legislative framework, creating a more differentiated system of care placement compared to the current Family Code.

Keywords

alternative care for children, children's rights, guardianship and custodianship, foster family, patronage, family-type children's home, adoption.

ПРАВОВЫЕ ФОРМЫ АЛЬТЕРНАТИВНОГО УСТРОЙСТВА ДЕТЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Бекбутаева Лобар Шовкат кизи

Независимый исследователь Национального центра по правам человека

Республики Узбекистан, г. Ташкент

Аннотация. В работе рассматривается система правовых форм альтернативного устройства детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, закреплённая законодательством Республики Узбекистан по состоянию на 2025 год. На основе анализа Семейного кодекса, Закона «Об опеке и попечительстве» (ЗРУ-364), Закона «О защите детей от всех форм насилия» (ЗРУ-996), Указа Президента УП-256 и Постановления Кабинета Министров № 893 от 27 декабря 2024 г. раскрывается содержание каждой формы устройства: усыновления, опеки и попечительства, приёмной (фостерной) семьи, патроната, детского дома семейного типа и специализированных воспитательных учреждений. Характеризуется иерархия форм с приоритетом семейного устройства, описывается соотношение законодательного и подзаконного уровней регулирования. Отмечается, что реформа 2024–2025 гг. существенно обновила подзаконный уровень, сформировав более дифференцированную систему форм устройства по сравнению с действующим Семейным кодексом.

Ключевые слова: альтернативное устройство детей, права ребёнка, опека и попечительство, приёмная (фостерная) семья, патронат, детский дом семейного типа, усыновление.

В настоящей работе рассматриваются правовые формы альтернативного устройства детей, закреплённые действующим законодательством Республики Узбекистан с учётом реформы 2024–2025 гг. Нормативную базу анализа составляют Семейный кодекс Республики Узбекистан (1998, в действующей редакции), Закон “Об опеке и попечительстве” (ЗРУ-364), Закон “О защите детей от всех форм насилия” (ЗРУ-996), Указ Президента УП-256 от 24 декабря 2025 г., а также Постановление Кабинета Министров № 893 от 27 декабря 2024 г. с приложениями.

Международные основы. Республика Узбекистан присоединилась к Конвенции ООН о правах ребёнка (1989) постановлением Верховного Совета от 9 декабря 1992 года. Конвенция закрепляет право ребёнка, лишённого семейного окружения, на альтернативную опеку со стороны государства (ст. 20), устанавливает приоритет наилучших интересов ребёнка (ст. 3), право на сохранение идентичности (ст. 8) и недопустимость произвольного разлучения с семьёй (ст. 9). Руководящие принципы ООН по альтернативному уходу за детьми (резолюция A/RES/64/142, 2010) конкретизировали данные положения, закрепив принципы необходимости и пригодности при помещении ребёнка вне семьи, иерархию форм устройства с приоритетом семейных форм над институциональными, а также стандарты мониторинга и оценки качества ухода. Комитет ООН по правам ребёнка в Заключительных замечаниях по объединённым пятому и шестому периодическим докладам Узбекистана (CRC/C/UZB/CO/5-6, 2022) также подтвердил значимость развития семейных форм устройства в национальном контексте.

Система форм альтернативного устройства. Согласно определению, содержащемуся в Приложении 1 к ПКМ № 893 альтернативными формами устройства детей являются–опека и попечительство; усыновление; приёмная (фостерная) семья, включающая два подвида - патронат и детский дом семейного типа (ДДСТ) в трёх вариантах (краткосрочном, долгосрочном и специализированном); специализированные воспитательные учреждения; а также иные формы, предусмотренные законодательством. Данный перечень выстроен с приоритетом семейных форм устройства над институциональными, что корреспондирует иерархии, закреплённой Руководящими принципами ООН: биологическая семья → расширенная семья → замещающая семья→ институциональный уход как крайняя мера.

Усыновление (удочерение) регулируется главой 20 Семейного кодекса (ст. 151–172) и представляет собой приоритетную форму устройства, при которой между усыновителем и ребёнком устанавливаются правоотношения, аналогичные родительским. Усыновление производится в судебном порядке — и это принципиально: судебный контроль здесь служит содержательной гарантией того, что интересы конкретного ребёнка рассмотрит независимый орган. Усыновлённый ребёнок утрачивает правовую связь с биологическими родителями и приобретает полный объём прав и обязанностей в отношении усыновителя. Законодательство устанавливает требования к личности усыновителя, включая возрастной ценз, состояние здоровья, жилищные и материальные условия, а также предусматривает обязательное согласие ребёнка, достигшего определённого возраста. Порядок международного усыновления подчинён дополнительным требованиям, направленным на обеспечение приоритета внутринационального устройства.

Опека и попечительство. Опека устанавливается в отношении детей, не достигших четырнадцати лет, попечительство - в отношении несовершеннолетних в возрасте от четырнадцати до восемнадцати лет. Правовую основу составляют статьи 173–175 Семейного кодекса, Закон “Об опеке и попечительстве” и Приложение 4 к ПКМ № 893. Данная форма остаётся наиболее распространённой в практике альтернативного устройства детей в республике — что отражает как укоренённость традиции родственной опеки в узбекском обществе, так и относительную доступность этой формы по сравнению с новыми договорными механизмами. Назначение осуществляется решением центра “Инсон” - уполномоченного органа в сфере опеки и попечительства - с приоритетом родственников ребёнка. Опекун (попечитель) наделяется статусом законного представителя ребёнка и несёт

ответственность за его содержание, воспитание и образование. Мониторинг условий жизни подопечного ребёнка осуществляется центром “Инсон” в соответствии с Приложением 3 к ПКМ № 893. Сохранение семейных связей и культурной идентичности ребёнка при данной форме устройства корреспондирует требованиям статей 8 и 9 Конвенции о правах ребёнка.

Приёмная (фостерная) семья. Данная форма устройства введена реформой 2024 года и урегулирована Приложением 6 к ПКМ № 893. Приёмная (фостерная) семья основана на возмездном договоре, заключаемом между центром “Инсон” и приёмными родителями, прошедшими обязательную профессиональную подготовку и получившими соответствующий сертификат. Финансирование ухода за каждым ребёнком осуществляется из Государственного фонда социальной защиты, что отличает данную форму от безвозмездной опеки. Согласно Приложению 6, приёмная (фостерная) семья выступает зонтичным понятием, объединяющим два подвида: патронат и детский дом семейного типа. Патронат, в свою очередь, ориентирован преимущественно на устройство ребёнка у родственников или иных близких лиц и регулируется также главой 22 Семейного кодекса (ст. 194–198), где используется формулировка “приемная семья (патронат)”.

Указом Президента УП-256 от 24 декабря 2025 г. в рамках Стратегии защиты детей от всех форм насилия на 2026–2030 годы введена специализированная разновидность - “профессиональная приёмная семья”, предназначенная для устрой-ства детей с травматическим опытом, то есть детей, пострадавших от насилия, пренебрежения или изъятых из неблагополучных семей. Для данной разновидности предусмотрено требование прохождения специализированной реабилитационной подготовки приёмными родителями. Введение профессиональной приёмной семьи находится в прямой взаимосвязи с Законом

“О защите детей от всех формнасилия”: закон создал правовую основу для системы защиты, а УП-256 – конкретный инструмент работы с последствиями насилия на уровне индивидуального устройства ребёнка.

Детский дом семейного типа (ДДСТ). ДДСТ предусмотрен в трёх вариантах: краткосрочном, долгосрочном и специализированном. Краткосрочный ДДСТ предназначен для временного размещения ребёнка на период до определения постоянной формы устройства. Долгосрочный обеспечивает стабильное проживание ребёнка в семейной среде на продолжительный период. Специализированный ДДСТ ориентирован на детей с особыми потребностями. Как подвид приёмной (фостерной) семьи, ДДСТ занимает промежуточное положение между индивидуальными семейными формами устройства и институциональным уходом: он обеспечивает семейную среду для большего числа детей, чем традиционная приёмная семья, сохраняя при этом индивидуальный характер ухода и воспитания.

Специализированные воспитательные учреждения в системе альтернативного устройства рассматриваются как форма, применяемая при невозможности использования семейных форм. Институциональный уход, таким образом, занимает последнее место в иерархии форм устройства, что соответствует принципу деинституционализации, последовательно проводимому в Руководящих принципах ООН и подтверждённому Комитетом ООН по правам ребёнка в Заключительных замечаниях по Узбекистану (CRC/C/UZB/CO/5-6, 2022). Перечень форм устройства также включает “иные формы, предусмотренные законодательством”, что оставляет систему открытой для дальнейшего развития.

Соотношение уровней регулирования. Описанная система форм устройства регулируется на двух нормативных уровнях. На законодательном

уровне действуют Семейный кодекс и Закон “Об опеке и попечительстве”, закрепляющие усыновление, опеку (попечительство) и патронат. На подзаконном уровне ПКМ № 893 расширяет данный перечень, вводя приёмную (фостерную) семью как зонтичное понятие и детализируя ДДСТ в трёх вариантах. Указ Президента УП-256 дополнительно вводит профессиональную приёмную семью. Таким образом, новые формы устройства введены преимущественно актами исполнительной власти, тогда как Семейный кодекс продолжает оперировать прежним терминологическим аппаратом, в частности используя понятия “приёмная семья” и “патронат” как синонимы (ст. 194). Данное соотношение уровней отражает динамичный характер реформы: подзаконное регулирование опережает законодательное, формируя более дифференцированную систему форм устройства. Это - характерная черта преобразований в ускоренном режиме: исполнительная власть реагирует быстрее, чем успевает обновиться кодифицированное право.

Таким образом, действующее законодательство Республики Узбекистан закрепляет многоуровневую систему форм альтернативного устройства детей, включающую как традиционные формы (усыновление, опека и попечительство), так и новые, введённые в ходе реформы 2024–2025 гг. (приёмная (фостерная) семья, профессиональная приёмная семья, ДДСТ в трёх вариантах). Система выстроена с приоритетом семейных форм устройства, что корреспондирует международным стандартам, закреплённым Конвенцией о правах ребёнка и Руководящими принципами ООН по альтернативному уходу за детьми. Характерной чертой современного этапа является опережающее развитие подзаконного регулирования, формирующего более дифференцированный и детализированный перечень форм устройства по сравнению с действующим

Семейным кодексом. Вопрос о том, когда кодифицированное право догонит подзаконное, остаётся открытым.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Конвенция ООН о правах ребёнка. Принята резолюцией ГА ООН 44/25 от 20 ноября 1989 г. Вступила в силу 2 сентября 1990 г. 1577 UNTS 3.

2. Руководящие принципы ООН по альтернативному уходу за детьми. Приняты резолюцией ГА ООН A/RES/64/142, 24 февраля 2010 г.

3. Комитет ООН по правам ребёнка. Заключительные замечания по объединённым пятому и шестому периодическим докладам Республики Узбекистан. CRC/C/UZB/CO/5-6. Женева, 2022.

4. Семейный кодекс Республики Узбекистан. Утверждён Законом Республики Узбекистан от 30 апреля 1998 г. № 607-I (в действующей редакции).

5. Закон Республики Узбекистан «Об опеке и попечительстве» от 2 января 2014 г. № ЗРУ-364 (в действующей редакции).

6. Закон Республики Узбекистан «О гарантиях прав ребёнка» от 7 января 2008 г. № ЗРУ-139 (в действующей редакции).

7. Закон Республики Узбекистан «О защите детей от всех форм насилия» от 14 ноября 2024 г. № ЗРУ-996. Вступил в силу 15 мая 2025 г.

8. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии защиты детей от всех форм насилия на 2026–2030 годы» от 24 декабря 2025 г. № УП-256.

9. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении нормативных документов в сфере альтернативного устройства детей, оставшихся без попечения родителей» от 27 декабря 2024 г. № 893.

TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	**Regional Private Universities Prospects** Rahimov Sardor	**3-8**
2.	**The Influence of Social Media on English Language Learning: Opportunities and Challenges** Maxamatismoilova Umidaxon	**9-14**
3.	**SCIENTIFIC AND PRACTICAL ASPECTS OF MECHANISMS FOR ENHANCING INVESTMENT ATTRACTIVENESS BASED ON THE GREEN ECONOMY IN THE ACTIVITIES OF MINING INDUSTRY ENTERPRISES** Zikrillayev Nusratilla	**15-22**
4.	**ROBOTICS AS A STEAM MODULE** Axmedova Gulrux	**23-27**
5.	**THE TRANSFORMATION OF TURKEY'S FOREIGN POLICY WITHIN NATO AS A FORM OF STRATEGIC AUTONOMY** Abdurakhimov Orifxon	**28-38**
6.	**IMPROVING THE LINK BETWEEN PHYSICAL ACTIVITY AND SELF-CONFIDENCE IN UNIVERSITY STUDENTS** Botirova Gulbaxor	**39-47**
7.	**THE RELATIONSHIP BETWEEN PHYSICAL ACTIVITY AND ACADEMIC ACHIEVEMENT AMONG STUDENTS** Arabova Nargiza	**48-57**
8.	**COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE ELECTRICAL AND HOME APPLIANCE MARKET AND ITS IMPACT** Kamolxodjayev Jamoliddin	**58-62**
9.	**METHODOLOGY FOR IMPROVING BIO-MOTOR QUALITIES IN BASKETBALL PLAYERS THROUGH AN 8-WEEK TRAINING PROGRAM** G'ofurov Doston	**63-71**

10.	**ANALYSIS OF SCHOOL STUDENTS' INTEREST IN DIGITAL GAMES AND ITS IMPACT ON PHYSICAL ACTIVITY MOTIVATION** Abdullayev Vohob	**72-78**
11.	**RESEARCH RESULTS OBTAINED FROM THE SECOND-YEAR PROGENY TEST NURSERY OF THE DURUM WHEAT VARIETY "BILLURDON"** Qarshiboyev Hasan	**79-86**
12.	**ECONOMIC EFFICIENCY OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES** Berdiyev Usmon, Allanazarov Ravshan	**87-96**
13.	**THE PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ESSENCE OF AN INDIVIDUAL APPROACH IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION** Aslonov Madamin	**97-103**
14.	**THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF PROJECT COMPETENCE IN THE SYSTEM OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS** Erkinova Lutfiya	**104-108**
15.	**THE ROLE OF GREEN MANURE-BASED CROP ROTATION SYSTEMS IN ENHANCING WATERMELON PRODUCTIVITY IN RAINFED AGRICULTURAL AREAS** Mamatkulov Ikrom	**109-115**
16.	**FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF REGIONAL ENTREPRENEURSHIP AND PROSPECTS FOR ENSURING INVESTMENT ACTIVITY** Khabibullayev Islomjon	**116-121**
17.	**THE CIVIL LAW NATURE AND FUNCTIONS OF PERSONAL NON-PROPERTY RIGHTS IN THE DIGITAL ENVIRONMENT** Ikhtiyor Bakhtiyorov	**122-131**
18.	**CIVIL LAW FOUNDATIONS FOR THE JOINT EXERCISE OF EXCLUSIVE RIGHTS (ON THE EXAMPLE OF TRADEMARKS)** Kamoljon Rakhmatov	**132-147**

19.	**WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP UNDER LABOUR MARKET TRANSFORMATION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF CHINA AND UZBEKISTAN** Khasanova Shakhzoda	**148-154**
20.	**MODERN FEATURES OF WOMEN'S CRIME AND ITS IMPACT ON SOCIETAL DEVELOPMENT** Abduraimova Guzal	**155-164**
21.	**THE CURRENT STATE AND ANALYSIS OF MEDIA EDUCATION IMPLEMENTATION AMONG YOUTH IN UZBEKISTAN** Jalolova Dilnoza	**165-171**
22.	**Methods of Text Comprehension Through Creative Tasks in Reading Lessons** Umida Yusupova	**172-176**
23.	**Methods of Expressive Reading and Text Analysis in Reading Lessons** Umida Yusupova	**177-181**
24.	**HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL FEATURES OF THE FORMATION OF THE IDEA OF HUMAN DIGNITY IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHICAL THOUGHT** Jumayev Nuriddin	**182-188**
25.	**STATUTORY FORMS OF ALTERNATIVE CARE FOR CHILDREN IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN** Bekbutayeva Lobar	**189-196**